

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#16-17 (16619)
2024-yil, 8-may
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan

9-MAY XOTIRA VA QADRLASH KUNI



ASOSIY MUAMMOLAR JOYIDA HAL ETILDI

RESPUBLIKA KOMISSIYASINING
VILOYATLAR BO'YLAB SAFARI DAVOM
ETMOQDA

→ 2-bet

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasining hududlarda o'rganish ishlari va yoshlar bilan muloqotlari davom etmoqda. Navbatdagi manzil Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'ldi.

Dastlab ishchi guruh a'zolari Bulung'ur tumani "Gulobod" mahallasi-ga borib, "Mahalla yetiligi" hamda

yoshlar bilan muloqot o'tkazdi. Muloqotda mavjud muammolarni hal etish yo'llari, aholini kambag'allikdan chiqarish, ekin maydonlari bilan ta'minlash masalalari muhokama qilindi. "Mahalla yetiligi"ga aholi tomorqalaridan samarali foydalanish, aholi muammolarini o'rganish va hal etish, bandligini ta'minlash, oilalarni mustahkamlash, ma'naviyat va ma'rifat, yoshlar tarbiyasi kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlar holatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi.



74 MAHALLA- DOSHIMNI ISHLI QILDIM

Nizomiddin MUHIDDINOV,
Zangiota tumanidagi "Shodlik" mahallasi yoshlar yetakchisi

→ 2-bet

Nizomiddin Muhiddinov 2023-yilda "Yilning eng namunalari mahalla yoshlar yetakchisi" tanlovining respublika bosqichida 3-o'rinni egallagan. Beshita tilda so'zlasha oladi. O'zbek tilidan tashqari, ingliz, ispan, nemis, rus va turk tillarini biladi. "Mutolaa" ilovasidan foydalanayotgan "Eng kitobxon hudud" reytingida mahallasi yoshlari faollar qatorida e'tirof etilgan.

18 yoshda edim. Onamga og'irimni tushirmaslik, ro'zg'or-ga yordamlashish uchun tibbiyot anjomlari ishlab chiqaradigan zavodda ish boshlaganman. O'tam juda mehnatkash, qo'ldan kelgancha insonlarga yordam beradigan inson bo'lgan. Ko'p yillar AKT sohasida ishlagan. Ammo 2008-yilda baxtsiz hodisa tufayli o'lmandan o'tgan...

OTALIQQA OLINGANLAR BILAN ISHLASHNING YAGONA TIZIMI YARATILDI



Mamlakatimizda so'nggi yillarda yoshlar siyosatida amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar yoshlarning bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun muhim poydevor bo'ldi hamda yoshlarimizning munosib hayot kechirishi, bunyodkorlik salohiyatini ro'yog'ga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashining 2024-yil 12-yanvardagi yig'ilishida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, huquq-tartibot va mudofaa organlariga 4 million yoshlarni otaliqqa biriktirib ishlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

→ 3-bet



"YOSHLIK"NING MAS'ULIYATLI YETAKCHISI

→ 4-bet

Shahboz Qo'chqorov – 2022-yil 21-yanvardan buyon Sharof Rashidov tumani "Yoshlik" mahallasi yoshlar yetakchisi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Ziyolilar oilasida tug'ilgan Shahboz bolalikdan ilm olishga, yangiliklar yaratishga qiziqqan. Tarix va siyosat uning eng sevimli sohasi. Ishga jiddiy yondashishi va mas'uliyatlili-gi bilan ajralib turadi.

O'tgan davr mobaynida ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan tizimli ishlar olib borib, 83 nafar yoshning muammosini "Yoshlar daftari" jam'armasi orqali joyida hal qilgan. Davlatning himoyasiga muhtoj bo'lgan 22 nafar yoshga homiylar tomonidan ko'mak ko'rsatgan. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida muntazam ravishda sport tadbirlari, kitobxonlik kechasi, "Zakovat" o'yini va turli estafetalar tashkil qilib kelmoqda. Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlikka qarshi kurashish maqsadida yoshlar bilan individual va organ tashkilotlari bilan ishlar olib boryapti. Yoshlarning bandligini ta'minlash dasturi orqali yoshlarning bandligi ta'minlanib, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlandi va ijobiy natijaga erishildi.

Shahboz "TOP – 100" yetakchi safiga kiritilib, milliy kadrlar zaxirasiga olingan.

"Yoshlar ovozi" mehmonda

"YOSH TADBIRKORLAR"
MARKAZI

→ 5-bet



Yoshlar bandligiga ko'maklashish, tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish bugunning eng muhim talabiga aylandi. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni shu maqsadga qaratilgan.

O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi Xorazm viloyati bo'limiga qarashli "Yosh tadbirkorlar" markazi loyihamizning keyingi manzili bo'ldi.

OTA-ONALAR FARZAND TARBIYASIDA QANCHALIK MAS'ULIYATLI

→ 6-bet

Ota-onalarning farzandi kelajagiga mas'uliyat bilan yondashuvi bolaning kamol topishi va muvaffaqiyatga erishishidagi muhim omildir. Ota-onalar farzandining hayoti va ta'lim-tarbiyasida faol ishtirok etsa, bolaning o'sishi va rivojlani-shi uchun maqbul muhitni ta'minlay oladi. Xo'sh, yurtimizda ota-onalar farzand tarbiyasida qanchalik mas'uliyatli? Ular farzandining kasb tanlashi, yaxshi o'qishi uchun maslahat berib, ko'maklashdimi? Yoshlar o'z xohishiga ko'ra kasb tanlayaptimi yoki ota-onasining qistovi bilan? Quyidagi tahlil orqali ushbu savollarga javob topishimiz mumkin.



GRANT UCHUN YANGI TARTIB:

→ 7-bet

TALABALAR
QANDAY
FIKRDA



ASOSIY MUAMMOLAR JOYIDA HAL ETILDI

RESPUBLIKA KOMISSIYASINING VILOYATLAR BO'YLAB SAFARI DAVOM ETMOQDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Ishchi guruh rahbari Qahramon Quronboyev shu mahallada yashovchi Sardor Abdurashidov xonadoni-ga bordi. Sardor 27 yoshda, migratsiyadan qaytib kelib chorvachilik faoliyatini yo'lga qo'ygan. U hokim yordamchisi ko'magida 33 million so'm imtiyozli kredit olib, qoramol va parranda boqmoqda. Sardor bilan suhbatda uni nima qiynayotgani, qanday muammolari borligi so'raldi. Mahalla yoshlari uchun maktabga qatnaydigan yo'l qurib berish borasidagi iltimosi eshitilgach, Ishchi guruh rahbari joriy yil 1-iyun sanasiga qadar mahalla boshidan maktabgacha bo'lgan yo'lni ta'mirlash va foydalanishga topshirish choralarini ko'rishini ta'kidladi.

"Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" g'oyasi asosida mamlakatimizdagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarini AKM xodimlari o'rtasida doimiy targ'ib qilib borish maqsadida Respublika ishchi guruhi Ishtixon tumaniga ham tashrif buyurdi. Mehmonlarni



tuman hokimi Fazliddin Ro'ziyev kutib olib, "Ustozlar" xiyobonidagi "Ochiq osmon ostidagi kutubxona" bilan tanishtirdi. Shundan keyin tuman aholisi uchun sayyor qabul tashkil etildi.

Shuningdek, ishchi guruh tomonidan Jomboy tumani "Nayman", "Qoramo'yin" va "Shirinkent" mahallalarida "Sayxunobod tajribasi" ni omallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi. Aholi tomorqalaridan foydalanish tartibi, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jinoyatchilikka chek qo'yish borasidagi ishlar o'rganildi. Bildirilgan taklif va mulohazalar asosida kelgusi vazifalar belgilab olindi.

Respublika ishchi guruh 4-5-may kunlari Jizzax viloyatining Forish, G'allaorol, Zarbdor va Baxmal tumanlarida aholi muammolari va "mahalla yetiligi" faoliyatini o'rgandi.

O'zbekiston Mahallalar uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev ishtirokida Forish tumanidagi "Egizbuloq" mahallasi madaniyat markazida tumandagi "mahallalar yetiligi" bilan uchrashuv o'tkazildi, ular faoliyatini yanada jonlantirish, yangi bosqichga ko'tarish masalalari muhokama etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash, farmon talablari asosida "mahallalar yetiligi" faoliyatini tashkil etish haqida fikr yuritildi.

O'rganishlarda aniqlangan kamchiliklarning asosiy qismi joyida hal etildi, muddat talab etiladiganlar ishlab chiqiladigan yo'l xaritasiga kiritilishi belgilandi.

O'rganish ishlari davom etadi.

Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev Kattaqo'rg'on tumanidagi mahallalarda bo'lib yoshlar muammolarini o'rganish holati va "mahalla yetiligi" faoliyatini ko'zdan kechirdi. Shuningdek, tumandagi yoshlarga ajratilgan yer maydoni, 68-umumta'lim maktabi, Turon o'quv markazi hamda "Yangi avlod" xususiy maktablari faoliyati bilan tanishdi. O'rganish davomida aniqlangan muammolar yechimlari belgilandi.

Ishchi guruh Paxtachi, Narpay tumanlarida ham bo'ldi. Jumladan, Samarqand davlat chet tillar institutining Narpay tumani filialidagi talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazildi. Uchrashuvda talabalarining taklif va tashabbuslari tinglandi. Ochiq muloqotda bir qator murojaatlar ijrosi yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

"GULOBOD" DA:

- ✓ YANGI KUTUBXONA QURILADI;
- ✓ KUTUBXONAGA 6 TA KOMPYUTER TAQDIM ETILADI;
- ✓ MAHALLADAGI MAKTAB YO'LI YANGIDAN QURILADI.

"Gulobod" mahallasi yoshlar yetakchisi Mohichehra Karimova mahallada kutubxona yo'qligi sababli o'z hududida kutubxona qurishda ishchi guruhdan amaliy yordam so'radi. Murojaatga javoban Qahramon Quronboyev "Gulobod" mahallada kutubxona qurish va 6 ta kompyuter olib berishga va'da berdi. Kutubxona homiylar va mahalla faollari yordamida kitob bilan to'ldirish belgilandi.



Men yetakchiman!

74 MAHALLADOSHIMNI ISHLI QILDIM

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

2014-yil yoz oylarida begona kishi otamning ismini aytib, uyimiz darvozasini taqillatib kelgan va bir vaqtlar u kishiga padarim tomonidan qilingan yaxshilikning rahmatini aytib ketgan.

Xayolinda otam uyga qaytib kelgandek, ko'z oldimda dunyovlar yorishib ketgan. Shunda buvim va onam: "Sen ham otang kabi el koriga kamarbasta bo'l", deb meni uzoq duo qilganlar. Shu voqea sabab odamlarga yaxshilik qilish hayotimning shioriga aylangan.

Hozir 26 yoshdaman. "Shodlik" mahallasida yoshlar yetakchisi etib tayinlangan ilk kuni minun unutmayman. O'zini Dilnoza Mannopova deb tanishtirgan yoshimiz: "Ishsizman. Subsiya asosida tikuv mashinasi olmoqchi edim. O'zi biz kabi oilaviy sharoiti qiyin bo'lganlarga rostdan yordam beriladimi?", deb so'ragan. So'ng mahalla raisi, hokim yordamchisi bilan birga bu murojaatni tegishli tartibda o'rganganmiz va Dilnozaga amaliy yordam berilgan.

O'tgan yili mahallamizda yoshlar bilan individual ishlash tizimini joriy etish uchun 14-30 yoshdagi 670 nafar yosh faoliyati tahlil qilindi. Ular 3 toifaga ajratilib, tarbiyasi og'ir va alohida ishlash zarur bo'lgan yoshlar tur-

li darajadagi tashkilot-muassasalar rahbarlariga nomma-nom biriktirildi. Natijada yordam ko'rsatilishi zarur bo'lgan 13 nafar o'g'il-qizning barchasiga amaliy ko'mak berildi. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 74 nafar yoshning bandligi ta'minlandi.

Jumladan, 1 nafar nogiron yoshning qiziqishidan kelib chiqqan holda noutbuk ajratilgan bo'lsa, 2 nafar yoshning o'qishi uchun kontrakt pullari to'lab berildi, 1 nafar yoshning davolanishi uchun moddiy ko'mak ko'rsatildi.

Toshkent shahridagi "PDP Academy" nodavlat ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda 1 nafar chin yetim yosh kasbga o'qitilmoqda. 6 nafar yoshga dehqonchilik qilishi uchun sug'oriladigan joylardan yer maydonlari ajratildi. Migratsiyaga ketgan 7 nafar yoshdan 2 nafari qaytarilib, bandligi ta'minlandi. "Og'ir" toifadagi jami 13 nafar yoshlarga amaliy ko'mak ko'rsatildi.

Faoliyatim davomida mahalla yoshlarining muammolarini o'rganish va hal etishga qaratilgan amaliy ishlarni olib boryapman. Yoshlar bilan ishlashning mas'uliyati, zavqi va zalvorini his etish o'sha tikuv mashinasi berilgan yoshning quvonchli kundan boshlangan.

JANGGOHLARDAN OMON QAYTGAN ABDUG'ANI OTA



Buloqboshi tumani Uchtepa mahallasi, Shamshod ko'chasida istiqomat qilayotgan Abdug'ani ota G'aprovov Ikkinchi jahon urushi janggohlari qahramonlik namunalari ko'rsatgan mard va jasur o'zbek yigitlaridan biri bo'lgan.

Bu yil yanvar oyida yuz yoshni nishonlagan Abdug'ani ota o'n sakkiz yoshida urushga safarbar qilingan. 1942-yildan to'g'alabaga qadar turli frontlarda nemis-fashist bosqinchi-

lariga qarshi ayovsiz janglarda ishtirok etdi, qahramonlik namunalari ko'rsatdi.

Abdug'ani ota o'sha davrlarni shunday xotirlaydi:

– 1941-yilning kuz oyida 1-Ukraina fronti tarkibidagi qismlardan birida jangga kirdim. Ukraina, Belarus, Polshadagi janglarda qatnashib, g'alabani Germaniyada kutib olganman. O'tgan ana shu suronli yillar nene azob-uqubatlarni ko'rmadim. Qancha-qancha safdoshlarim ko'z oldim-

9-may – Xotira va qadrlash kuni

da halok bo'ldi. Urushning nomi o'chsin. Janggohlarda ingrab yotgan yaradorlar, och, yupun, ota-onasiz qolgan bolalar, vayron bo'lgan qishlog'u shaharlar xotiramdan o'chmaydi.

Bugun otaxon 8 nafar farzandi, 100 nafardan ziyod nabira va chevaralari, hamqishloqlari, el-yurt ardog'ida umrguzaronlik qilmoqda.

– Kishi halol mehnati, ibratli ishlari, insoniy fazilatlar bilan el-yurt o'rtasida qadr, hurmat topadi, – deydi Abdug'ani ota. – Yoshlar – farzandlarimiz mana shu hayotiy haqiqatni anglasin, ayniqsa, tinchlikning qadriga yetsin. Bugun biz urush faxriylariga yuksak ehtirom ko'rsatayotgan Prezidentimizga, hukumatimizga, xalqimizga rahmat. Har yili pul mukofotlari berilyapti, shifokorlar salomatligimizdan xabar olishadi. Bundan ko'nglimiz tog'day ko'tariladi.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
O'ZA muxbiri
Foto: Zuhridin UMRZOQOV

INTERNETDA MUALLIFLIK HUQUQI YO'QMI?

Jasurbek NABIJONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Biror telegram kanalida e'lon qilingan yangilik yoki ijtimoiy tarmoqlarda joylangan post, surat yoki video umuman boshqa tarmoqda hech qanday muallif ko'rsatilmagan tarqatilganiga juda ko'p guvoh bo'lamiz. Va buni oddiy holdek qabul qiladigan bo'lib qolganmiz. Aslidachi? Internet tarmoqlaridagi materiallarning egasi yo'qmi? Ularga intellektual mulk sifatida qaralib, mualliflik huquqi amal qilmaydimi?

INTELLEKTUAL MULK O'ZI NIMA?

Intellektual mulkka oid qonun hujjatlariga ko'ra, insonning aqliy mehnat faoliyati natijasida ya'ni fan, adabiyot, san'at, ishlab chiqarish sohasidagi adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrolar, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, kompyuter dasturlari, nou-xau ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma nomlari va boshqa aqliy mulk obyektlari intellektual mulk obyekti bo'la olishi belgilangan. Ko'rib turganingizdek, intellektual mulk tushunchasi keng qamrovli bo'lib, uning turlari muntazam kengayib borishi bilan ham boshqa fuqarolik huquqi tushunchalaridan farq qiladi.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinayotgan materiallar ham agar u insonning aqliy mehnati natijasida yaratilgan va individual ijodiy faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, intellektual mulk obyekti deb tan olinishi mumkin. Qolaversa, internetdagi ijodiy materiallarga ham mualliflik huquqi tatbiq etiladi. Chunki 2006-yil 20-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida: "mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki biror-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi", deb ko'rsatilgan. Mazkur normadan kelib chiqsاق, internet platformalaridagi video materiallar, audio-yozuvlar va postlar ham muallifning intellektual mulki hisoblanishi mumkin. Bunda internet tarmog'ida material muallifning aynan ijodiy ishi bilan bog'liq bo'lishi lozim. Sababi, yuqoridagi qonunning 5-moddasiga asosan, mualliflik huquqi g'oyalari, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizim-

27 FOIZ INTERNET FOYDALANUVCHISI TURLI PLATFORMALARDAGI MA'LUMOTLARNI MUALLIF ROZILIGISIZ QAYTA ISHLAYDI.

lar, usul yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi.

Afsuski, mazkur materiallardan ko'plab internet foydalanuvchilari mualliflik huquqi qoidalarga rioya qilmagan foydalanadilar. Natijada intellektual mulkdorlar va iste'molchilar o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda kuzatilayotgan salbiy jarayondir. Jahon Intellektual mulk tashkiloti (WIPO) statistikasiga qaraganda, 27 foiz internet foydalanuvchisi turli platformalardagi ma'lumotlarni muallif rozilgisiz qayta ishlaydi.

KIM NAZORAT QILADI?

Yurtimizda mualliflik va turdosh huquqlar muhofazasiga oid qonunchilik takomillashtirilgach, 2023-yilning o'zida Adliya vazirligiga 270 ta shunday mazmundagi murojaat kelib tushgan. Sudlarga kelib tushgan arizalar miqdori esa muallif va turdosh huquqlar buzilishi bo'yicha 80 tani tashkil etadi. Demak, O'zbekistonda ham intellektual mulk huquqi muhofazasi dolzarb masalaga aylanoqda.

Intellektual mulk huquqi va uning muhofazasiga oid ishlarda muallifning tashabbusi juda muhim sanaladi. Garchi O'zbekistonda mualliflik huquqini himoya qilish va dasturiy ta'minotlardan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashish bo'yicha "O'zkomnazorat" axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiya hamda Ichki Ishlar vazirligi tizimiga qarashli Kiberxavfsizlik markaziga internet tarmog'ida mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish uchun vakolat berilgan bo'lsa-da, ularning huquqbuzarlik faktini aniqlashdagi faoliyati muallifning arizasiga asoslanadi.

QANDAY JAVOBGARLIK BOR?

Mualliflik va turdosh huquqlarni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lib, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 177-1-moddasiga ko'ra, mualliflik va turdosh huquqlarni buzgan fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan 5 baravarigacha (340 ming so'mdan 1 million 700 ming so'mgacha) jarima jazosi qo'llaniladi.

Agar huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasini qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takroran sodir etilsa, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha (1 million 700 ming so'mdan 3 million 400 ming so'mgacha) jarima jazosi mavjud.

"Jinoyat kodeksi"ning 149-moddasiga binoan, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish BHMning 25 baravaridan 75 baravarigacha (8 million 500 ming so'mdan 25 million 500 ming so'mgacha) jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish xudud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tazaviy ishlari bilan jazolanadi.

Qolaversa, "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning 62- va 65-moddalariga asosan muallif huquqbuzarlik sodir etgan shaxsdan BHMning 20 baravaridan ming baravarigacha (6 million 800 ming so'mdan 340 million so'mgacha) kompensatsiya undirishi mumkin.

Ma'lumki, internetdan foydalanishni cheklab bo'lmaydi va buning iloji ham yo'q. Biroq internet foydalanuvchilari mualliflik huquqini buzishlarining oldini olish maqsadida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177-1 va jinoyat kodeksining 149-moddalaridan tashqari, aynan internet tarmoqlarida intellektual mulk obyektlaridan foydalanish qoidalari mualliflik uchun alohida javobgarlikni tatbiq etish va bu bo'yicha kodekslarga yangi norma kiritish hamda yuqoridagi moddalarning sansiya qismini kuchaytirish to'g'ri yechim bo'lishi mumkin.

Ulug' fransuz huquqshunosi Sharl de Monteskyue aytganidek, jamiyat amal qilmasa va o'z munosabatini o'zgartirmasa, qonunlar hech qachon ish bermaydi. Qonunlarni tahrirlashda internet tarmog'ida intellektual mulk masalalari ham alohida e'tiborga olish va uning muhofazasi bilan bog'liq yangi normalarni ishlab chiqish zarur.

OTALIQQA OLINGANLAR BILAN ISHLASHNING YAGONA TIZIMI YARATILDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida otaliqqa biriktirish tizimini muvofiqlashtiruvchi Respublika (12 nafar), hududiy (112 nafar) va tuman (shahar) shtablari (1 248 nafar) faoliyati yo'lga qo'yildi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarining 11 nafar mutaxassisidan iborat ekspertlar guruhi ishlab chiqqan yoshlar bilan ishlash bo'yicha uslubiy qo'llanma joylarga tarqatildi. Yoshlar ishlari agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati, huquq-tartibot va mudofaa organlarining 43 nafar mas'ullaridan iborat Respublika ishchi guruhi joriy yil 21-fevral-12-mart kunlari hududlardagi ishlar holatini o'rganib, mas'ullarga uslubiy ko'mak berdi.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida 4 million yosh 9 448 ta mahalla kesimida huquq-tartibot va mudofaa organlariga 4 ta sektor kesimida biriktirildi.



Ma'lumot uchun:
1-sektorga (Mudofaa) 1 million nafar;
2-sektorga (Bosh prokuratura, FVV) 500 ming nafar;
3-sektorga (IV) 1 million nafar;
4-sektorga (Adliya, Milliy gvardiya) 500 ming nafardan yoshlar biriktirildi.

Mazkur yoshlar bilan ishlash uchun tegishli huquq-tartibot va mudofaa organlarining hududlardagi 18 105 nafar mas'ullari jalb qilingan. Ma'lumot uchun, mas'ullarning:
4 429 nafarini mudofaa;
1 231 nafarini prokuratura;
1 097 nafarini favqulodda vaziyatlar;
5 468 nafarini ichki ishlar;
3 740 nafarini milliy gvardiya;
2 140 nafarini adliya organlari xodimlari tashkil etadi.



Biriktirilgan 4 million yosh bilan ishlash bo'yicha tarmoq-reja ishlab chiqilib, ishlarning doimiy monitoringi yo'lga qo'yildi. Biriktirilgan mas'ullar 3 067 176 nafar yosh bilan "xonadonbay", 219 320 nafari bilan "onlayn" suhbatlar o'tkazib, aniqlangan 302 319 ta muammoni hal etish bo'yicha "Yo'l xarita"lari tasdiqlandi. Xarita asosida 25 861 nafar yigit-qizning ijtimoiy va maishiy muammolari "mahalla yetiligi" hamda tegishli tashkilotlar hamkorligida hal etildi.

Ma'lumot uchun:
1 497 ta mehnat yarmarkalarida 5 274 nafar yoshning bandligi ta'minlandi, 2 940 nafari kasb-hunarga o'qitishga jalb etildi, 849 nafariga moddiy yordam ko'rsatildi, 395 nafariga subsidiya va 798 nafariga kreditlar ajratildi, 40 712 nafarining boshqa muammolari hal qilindi.

Biriktirilgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bo'yicha hududlarda 104 646 ta tadbir tashkil etildi. Ularga 3,8 million yosh jalb etildi. Mahallalarda 5 369 ta kichik kutubxon, kitob va ma'naviyat burchaklari tashkil etildi. Yoshlarda huquqiy savodxonlik va qonunga itoatkorlik hissinu yuksaltirishga qaratilgan 56 629 ta tadbir orqali 1,7 million nafar yosh qamrab olindi.



Ma'lumot uchun, 23 587 ta huquqiy-targ'ibot kunlari doirasida:
4 524 ta tanlov;
1 746 ta sayyor sud majlisi;
9 848 ta maxsus huquqiy profilaktik;
16 924 ta boshqa tadbirlar o'tkazildi.

Huquq-tartibot va mudofaa organlari 4 million yoshni otaliqqa olib, ishlarni onlayn monitoring qilishga qaratilgan "yoshlar.ijro.uz" yagona elektron palatfomasi yaratildi. Yoshlarning ma'lumotlari xavfsizligi, shaffofligini ta'minlash uchun axborot tizimi "Raqqamli hukumat" markaziga integratsiya qilindi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari tomonidan 69 ming tarbiyasi og'ir yoshlar uchun o'quv-yig'inlarini tashkil etish bo'yicha ishchi guruhi, o'quv-larning reja-grafigi, namunaviy dasturi, chora-tadbir dasturi shakllantirildi.

Ma'lumot uchun:
Qurullil Kuchlar akademiyasida - 24 ming;
IIV akademiyasida - 15 ming;
Chirchiq Oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida - 10 ming;
Jamoat xavfsizligi universitetida - 5 ming;
DXX akademiyasida - 5 ming;
Huquqni muhofaza qilish akademiyasida - 5 ming;
FVV akademiyasida - 5 ming nafar yosh o'qitiladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining salohiyati va o'quv bazalarining imkoniyatidan kelib chiqib, o'quv jaryonlari 14 ta hudud kesimida tashkil qilinmoqda.



Ma'lumot uchun: Qurullil Kuchlar akademiyasiga Qoraqalpog'iston, Xorazm, Jizzax; IIV akademiyasiga Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo; Chirchiq Oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga Toshkent viloyati; Jamoat xavfsizligi universitetiga Andijon, Namangan; DXX akademiyasiga Surxondaryo, Farg'ona; FVV akademiyasiga Samarqand, Sirdaryo viloyatlari; Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga Toshkent shahridagi yoshlarni o'qitish yuklatilgan.



Akmal ALIMOV,
Yoshlar ishlari agentligi-ning Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, yoshlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasiga ko'maklashish bo'limi boshlig'i

Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 29-30-mart kunlari Farg'onada otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlash bo'yicha yagona yondashuvning namunaviy tajribasini shakllantirishga qaratilgan yoshlar forumi bo'lib o'tdi. Forum yoshlarni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga faol jalb qilish, huquqni muhofaza qiluvchi va mudofaa organlari bilan birgalikda otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlash bo'yicha yagona namunaviy tajribani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

“
RESPUBLIKANING
BARCHA HUDUDLARIDA
“FARG'ONA TAJRIBASI”
IJROGA TATBIQ ETILDI.
OTALIQQA OLINGAN
YOSHLAR BILAN
ISHLASHNING YAGONA
TIZIMI YARATILDI.

Forumda huquq-tartibot va mudofaa organlari mas'ullari tomonidan otaliqqa olingan yoshlar bilan "Farg'ona viloyati tajribasi" asosida ishlash bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi. Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, "Mahalla yetiligi" bilan hamkorlik masalalaridagi vazifalar muhokama qilindi. Tizimni shakllantirishda yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni hal etish, manzilli reja asosida ishlashga kelishib olindi. Respublikaning barcha hududlarida "Farg'ona tajribasi" ijroga tatbiq etildi. Otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlashning yagona tizimi yaratilib, yoshlarning alohida va belgilangan rejalari asosida nazorati yo'lga qo'yildi.

BIZ BIRGAMIZ!



2023-yil 31-oktabr kuni

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Hukumat rahbarlari kengashida 2024-yil "MDH davlatlarida Volontyorlar harakati yili"; poytaxtimiz Toshkent shahri esa MDHning birinchi yoshlar poytaxti deb e'lon qilingan edi.

Joriy yil 3-4-may kunlari MDH davlatlari volontyorlarining 2024-yildagi birinchi "Biz birgamiz" forumiga MDH davlatlari yoshlar poytaxti - Toshkent shahri mezbonlik qildi. Forumda Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Belarus Respublikalaridan 60 nafar delegat ishtirok etdi.

Forumdan ko'zlangan maqsad barqaror rivojlanish uchun ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash va Hamdo'stlik mamlakatlarida volontyorlar harakatini faollashtirishdan iborat.

Forum sharqona urf-odat va an'analar ruhida tashkil etilib, unda ishtirokchi davlatlar norasmiy sharoitda O'zbekistondagi Volontyorlar harakatining ilg'or tajribalari bilan shaxsan tanishish, shuningdek, "Ekofaoliyat" kabi yo'nalishlarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. "Favqulodda yordam volontyorlari", "Ko'ngilli shifokorlar", "Ommaviy tadbirlarda volontyorlar bilan ishlashning nozik jihatlari" va volontyorlik dunyosidagi boshqa dolzarb yo'nalishlar ko'rgazmasi ham namoyish etildi. Inklyuzivlik va to'siqsiz muhit mavzusi bo'yicha ekspertlarning ishtirok etishi forumning o'ziga xos xususiyati bo'ladi.

Forum davomida davlat sektori, xalqaro tashkilotlar, biznes sektori va jamoatchilik vakillarini birlashtirgan va qo'llab-quvvatlagan asosiy ko'ngilli loyiha sifatida "Mo'jizalar vaqti" 23-xayriya yarmarkasi uchun ko'rgazmali maydoncha tashkil etildi. Yarmarkada alohida ehtiyojli va imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar o'z asarlarini namoyish etdi. "Mo'jizalar vaqti" platformasi har yili 2000 dan ortiq sof qo'l mehnati mahsulotlarini taqdim etadi va 300 dan ortiq faol shahar volontyorlari, shu jumladan, ixtisoslashgan va namunali volontyorlarni birlashtiradi.

Forumning maqsadlari:

- ishtirokchi davlatlar o'rtasida norasmiy tajriba almashish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- o'z mamlakatlaridagi muvaffaqiyatli tajribalarni muhokama qilish va kengaytirish;
- forumning ish yo'nalishlari orqali volontyorlarning kommunikativ, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- MDH mamlakatlarida volontyorlar harakatini rivojlantirishga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish;
- o'zaro hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish va MDH davlatlarining fuqarolik salohiyatini mustahkamlash.



IMTIYOZ - YOSHLARGA QANOT



Kamola QAYUMOVA,
Yoshlar ittifoqining Navoiy viloyati kengashi matbuot kotibi



Inson orzu va maqsad qilishdan charchamaydi. Men kabi yoshlarning orzularini ro'yobga chiqarishda O'zbekiston yoshlar ittifoqining hisssasi juda katta. Bu tashkilotga ilk qadam qo'yganimga roppa-rosa 12 yil bo'ldi, men uchun ikkinchi uyimga aylandi.

2022-yilda muddatidan oldin talaba bo'lish baxtiga muvaffaq bo'ldim. 2 nafar farzandning onasi uchun oliy ma'lumotli bo'lish baxti juda ham quvonchli edi. Vazirlar Mahkamasining 914-sonli qarori asosida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida mehnat stajiga ega bo'lgan faol yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish bo'yicha tavsiyanomalar berilgani biz uchun katta imtiyoz hisoblanadi. Bunday imtiyozni Navoiy viloyatida 2018-yili Doston Muxtorov, 2019-yili Gulhayo Ravshanova, 2020-yili Javohir Husenov, 2021-yili Lobar Jalolova, 2023-yili Bahodir Mavlonov qo'lga kiritgan.

- Yoshlar ittifoqi berayotgan imtiyoz iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida yillar davomida volontyor sifatida faollik yuritayotgan yoshlar uchun imkoniyat deb bilaman, - deydi Yoshlar ittifoqi imtiyozli asosida talaba bo'lgan Gulhayo Ravshanova. - Tavsiyanoma asosida qabul qilingan yoshlarning majburiyati bor. Keyingi to'rt yillik o'qish davomida ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun qator vazifalarni yelkasiga yuklaydi. Yoshlar ittifoqi imtiyozli asosida o'qishga qabul qilingan yosh sifatida har doim bitta maqsad qo'yganim: 4 yil mana shu ishonchni oqlash.

Yoshlar ittifoqi chinakam ma'noda yoshlarning tayanchiga aylana oldi. Oliy ta'limga kirish uchun tavsiyanoma faol yoshlarni rag'batlantirishda, ularga qanot bo'lishda davom etadi.

TINCHLIKDAN TOTLI NE'MAT YO'Q

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Termiz davlat universiteti talabalari II Jahon urushi qatnashchisi Shohimardon Hamroyevning xonadonida bo'ldi.

Endigina 18 yoshni qarshilagan boysunlik Shohimardon Hamroyev umrining eng gullagan yillarini II Jahon urushining olovli jangohlarida o'tkazadi. U dahshatli urushda Varonej, Latviya, Litva, Estoniyani dushmandan ozod qilishga o'z hissasini qo'shgan.

Vataniga qaytgan qahramon pedagogika sohasida o'qishni tamomlab, Boysun tumanidagi maktabda 40 yil dars berdi. Ayni paytda 104 yoshni qarshilagan Shohimardon Hamroyev 11 nafar farzand, 48 nafar nevara, 70 nafar chevara va 7 nafar evaralari qurshovida umrguzaronlik qilmoqda.

- 4 yil umrim jangohlarda kechdi, - deydi Shohimardon ota. - Bu yillardagi urushning dahshatini butun umrim davomida unutolmadim. Hatto hozir ham o'sha voqealar gavgaldanaveradi. Goh tushumda, goh o'ngimda sajdoshlarimni ko'raman, o'sha kunlarni eslarkanman, shunday tinch zamonada yashayotganimga shukr qilaman, aslida odamzod uchun tinchlik, totuvlikdan qadrliroq ne'mat yo'qligini his etaman.



ENG, ENG, ENG...

KUCHLI OVOZ EGALARI ANIQLANDI

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkaziladigan tanlov va musobaqalarda Qashqadaryo viloyatidan jami 483 385 nafar yosh ro'yxatdan o'tgan. Shundan 297 411 nafari sport musobaqalarida, 183 056 nafari ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish istagini bildirgan.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida "Yoshlar ovozi" tanlovining hududiy bosqichi nihoyasiga yetdi. Kechada tanlovning tuman va shahar bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 160 nafar yosh ishtirok etdi. Natijalar:

- Ishitirokchilar orasida eng yuqori balni an'anaviy ijro yo'nalishi 15-19 yosh toifasida Jasmina Sheraliyeva qo'lga kiritdi;



- Opera yo'nalishida kitoblik Hilola Sodiqova "Eng kuchli ovoz" egasi deb e'tirof etildi;
- Saralashlarda o'zbek estradasining ko'zga ko'ringan xonandalari ishtirok etgani tanlovning darajasini ko'rsatadi.

"YOSHLIK"NING MAS'ULIYATLI YETAKCHISI

BANDLIKNI TA'MINLASH TAJRIBASI

Yoshlar yetakchisi o'tkazgan xatlovda "Yoshlar daftari" elektron platformasiga 2022-yilda 50 nafar, 2023-yilda 33 nafar ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan yoshlar kiritildi, ularning muammolari o'z yechimini topdi.

"Yoshlik" mahallasida ishsiz yoshlar soni 46 nafar bo'lib, yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan yoshlarning 12 nafariga subsidiya asosida o'zini o'zi band qilishi, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun asbob-uskuna va mehnat qurollari taqdim etildi. 37 nafar ishsiz yoshga ijara huquqi asosida 10 yil muddatdan 30 yil muddatgacha dehqonchilik qilishi uchun yer maydonlari foydalanishga topshirildi. 15 nafar oliy va professional ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talaba yosh kontrakt to'lovlarining bir qismi qoplandi. 9 nafar moddiy ahvoli qiyin bo'lgan yoshning davolanish va dori-darmon xarid qilishi uchun bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi. 15 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlariga homiylik mablag'lari hisobidan maktab formolari olib berildi. 18 nafar tadbirkorlik qilish istagidagi yoshlarga hokim yordamchisi bilan hamkorlikda imtiyozli kreditlar ajratildi. 4 nafar yoshning safarbarlik chaqiruv rezervi badal to'lovlari qoplandi.



HECH KIM E'TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI

2023-yil 11-aprel kuni Prezident raisligida yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etishga bag'ishlangan yig'ilishda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar "yashil", "sariq" va "ahvoli og'ir" - "qizil" toifalarga ajratilgan edi. "Yoshlik" mahallasida 2023-yilda 17 nafar yosh "og'ir" ("qizil") toifaga kiritilgan. Shundan 16 nafar tumanidagi sektor va tashkilot rahbarlariga hamda 1 nafari viloyat tashkilot rahbariga individual ishlash maqsadida birlashtirilgan edi. Ulardan:

- probatsiya nazoratidagi yosh - 1 nafar;
- profilaktika hisobidagi yosh - 2 nafar;
- oilaviy ajrim yoqasidagi yosh oila - 2 ta;
- xorijiy migratsiyadan qaytgan yosh - 4 nafar;
- nogironligi bor yosh - 8 nafarni tashkil etdi.

Rahbarlar o'zlariga birlashtirilgan yoshlar xonadonlariga tashrif buyurib, ularning muammolarini o'rganib, ularni qildi. Suhbat davomida aniqlangan muammolar navbat bilan hal etilmoqda. Sharof Rashidov tumani Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i Akbar Umarov o'ziga birlashtirilgan 8 nafar nogiron yoshdan 2 nafariga yangi nogironlik aravachasi topshirdi. "Yoshlik" mahallasi qishloq hududida joylashgan bois 1-guruh nogironi Sardor Xudoyberdiyevning istagidan kelib chiqib unga 2 bosh qo'y olib berildi.

Shahboz QO'CHQOROV,
Sharof Rashidov tumani "Yoshlik" mahallasi yoshlar yetakchisi



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

“PROFILAKTIKA HISOBIDAGI 2 NAFAR YOSHLAR MAHALLA NURONIYLARIDAN MURABBIY TAYINLANIB, “BIR NURONIYGA – 10 NAFAR YOSH” TAMOIYI BO'YICHA ISHLAR YO'LGA QO'YILDI.



"YOSHLIK" MAHALLASI BALANSI:

Tashkil etilgan sana:
2017-yil 2-noyabr;

Aholi soni:
3 874 nafar;

Xonadonlar soni:
668 ta;

Ko'chalar soni:
24 ta;

Yoshlar:
1034 nafar (14-30 yosh);

Ayollar:
489 nafar.

"BIR NURONIYGA – 10 NAFAR YOSH"

Jonibek Karimqulov 17 yoshda, u hamqishlog'i bilan o'zaro kelishmovchilik natijasida unga tan jarohati yetkazadi. Natijada Jonibek doimiy probatsiya nazoratiga olingan. Voyaga yetgan bo'lsa-da, fuqarolik pasportini olishga imkoniyati yo'q edi. Jonibek Karimqulov o'ziga birlashtirilgan Jizzax viloyati IIBning birinchi o'rinbosari ko'magida muddatidan oldin probatsiya nazoratidan chiqarilib, biometrik pasport olishiga yordamlashildi.

Profilaktika hisobidagi 2 nafar yoshga mahalla nuroniylaridan murabbiy tayinlanib, "Bir nuroniya - 10 nafar yosh" tamoyili bo'yicha ishlar yo'lga qo'yildi. Ular xulqi yaxshilangani uchun tuman IIB boshlig'i ko'magi bilan hisobdan chiqarildi. Ularga "e-aksion" platformasi orqali 10 yillik ijara huquqi asosida yer ajratilib, bandligi ta'minlandi.

Oilaviy ajrim yoqasiga kelib qolgan ikki yosh oila tuman hokimining Oila va xotin qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosariga birlashtirilgach, ularning xonadoniga mahalla yetiligi, faollar, "Oqila ayollar" va "Nuroniylar kengashi" a'zolari birlashtirilgan bo'lib, ajrim sabablari va ularni murosaga keltirish ishlari olib bordi. Tibbiy muolajaga muhtoj yoshlar tuman tibbiyot birlashtirish imtiyozli yo'naltirildi.

XORIJDAGI MAHALLADOSHILAR

"Yoshlik" mahallasida 2024-yil 1-choragi bo'yicha jami xorijdagi yoshlar soni 25 nafar bo'lib, ulardan ta'lim olish maqsadida xorijda yurgani 5 nafar, ishlayotgani 20 nafarni tashkil etadi, - deydi "Yoshlik" mahallasi yoshlar yetakchisi Shahboz Qochqorov. - Rossiya Federatsiyasida 11 nafar, Turkiyada 10 nafar, Yaponiyada 2 nafar, Janubiy Koreyada 1 nafar, AQShda 1 nafar mahalla yoshlari yashaydi. Ulardan mehnat migrantlarini vatanga qaytarish va bandligini ta'minlash maqsadida sektor rahbari, "mahalla yetiligi" bilan ishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda "Xorijdagi "Yoshlik" yoshlari" nomli guruh ochilib, ularni qamrab olganimiz va ular bilan ham, ularning ota-onalari bilan ham tez suhbatlar olib borilmoqda.

Migratsiyadan qaytgan 3 nafar yoshga tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i tomonidan doimiy ish o'rinlari taklif etildi. Ayrim yoshlarning

kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji borligi sababli Jizzax shahridagi "Ishga mahamat" monomarkazidagi qisqa muddatli o'quv kurslariga joylashtirildi.

2023-yil "Yoshlik" mahallasi yoshlar yetakchisi va yoshlari uchun juda samarali yil bo'ldi. Ayrim yoshlar hayotidagi muammolar yechilib, ularning jamiyatga yetuk shaxs bo'lib kirishlari va mahallada sog'lom muhit hosil bo'lganligiga ishonch hosil qilishlariga erishildi.

IQTIDORLAR KASHF ETILMOQDA

"Yoshlik" mahallasi yoshlari an'anaviy tarzda o'tkazilib kelina-yotgan "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalarida ham o'zining faolligi bilan ajralib turadi. Xususan, Mo'minjon Ne'matullayev olimpiadaning 2023-yilgi mavsumida shaxmat bellashuvlarida tumanda 2-o'rinini, yengil atletika musobaqasida "Yoshlik" mahallasi jamoasi tumanda 3-o'rinini qo'lga kiritdi.

Yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan yoshlar o'rtasida xorijiy tillarni ommalashtirish va "Ibrat Academy" mobil ilovasini targ'ib qilish maqsadida har haftada faol til o'rganayotgan, til bilish sertifikatiga ega yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etilayapti. Mahallada xalqaro til sertifikatini qo'lga kiritgan yoshlardan Nodirbek Sultonmurodov, Farangiz Sarvarova, Munis Primqulova va Gulnoza Meliboyeva tengdoshlariga namuna bo'lib kelmoqda.

Mahalladagi iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish mahalla yoshlar yetakchisining oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biridir. "Yoshlik" mahallasi yoshlar yetakchisi Shahboz Qochqorov bu yo'nalishda ham bir qator ishlar amalga oshirdi. Xonadonbay o'tkazilgan xatlov jarayonlarida mahalladagi sportga, san'atga, she'riyatga iqtidori bor yoshlarni aniqlab, ularning qiziqishi va iqtidoridan kelib chiqib, ustozlarga yo'naltirdi.

BIRINCHI KITOBIMNI CHIQAIRAMAN

Bolalikdan kitobga, she'riyatga qiziqishim katta, - deydi 24 yoshli Shahboz Tirkashev. - Maktab paytlarida she'rlar yozib turardim. Ulg'aygach, ishga, pul topishga qiziqib ketganimdan she'r yozishni tashlab qo'ygan edim. Mahallamiz

yoshlar yetakchisi Shahboz Qochqorov xonadonimga kelib, xatlov o'tkazgan jarayonda avvallari she'rlar yozganimni aytgan edim. Yoshlar yetakchisi menga yana ijob qilishim uchun sharoit yaratib berishga va'da bergan edi. Hozir shirinliklar ishlab chiqarish korxonasida ishchi sifatida faoliyat yuritaman. Shahboz Qochqorov korxonada boshlig'i bilan gaplashib, ijob qilishim uchun sharoit yaratib berdi va she'riyat yo'nalishida ta'lim olishim uchun ustoz ham birlashtirib berdi. Bir nechta she'rlarim ham tayyor. Nasib qalsin, birinchi kitobimni chiqarish harakatidaman. Kitobim uchun nom ham tayyor: "Uyg'onish".



HAM TIKUVCHI, HAM DIZAYNER

Yoshim 22 da, Jizzax politexnika institutida o'qiyman, - deydi Ma'mura Meliboyeva. - Tikuvchilikni mahallamizdagi tikuvchi ayoldan o'rganman. Rasm chizishga qiziqish va tikuvchilikni uyg'unlashtirib, dizaynerlikka yetakladi. Institutda dizaynerlik yo'nalishida tahsil olaman. Kiyimlar uchun yangi ko'rinish, dizaynlarni ishlab chiqaman. Xatlov jarayonlarida mahalla yoshlar yetakchisi tikuv mashinasiga ehtiyojini borligini bilib, subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berdi. Biroz soddarroq chizilgan ishlarimni o'zim tikib ko'raman. Yangicha ko'rinishda tikilgan kiyimlar uchun birinchi xaridor har doim opam bo'ldi. Bir nechta yangiliklarim mahallamiz ayol-qizlariga ham ma'qul kelib, buyurtma ham qabul qilamiz. Uyimdan bir xona ajratib, kichik seximni ochdim. Tekstil korxonalaridan ham takliflar bo'lyapti. Lekin hozir pul topishga emas, dizaynerlik sohasini chuqurroq o'rganishga harakat qilyapman. Maqsadim xalqaro moda festivallarida namoyishlar o'tkazish.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV, "Yoshlar ovozi" muxbiri

BIZNESDA ILHOM va INNOVATSIYA

3-may kuni "Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi" doirasidagi "Biznesdagi yoshlar: ilhom, innovatsiya, muvaffaqiyat" panel sessiyasida o'zbekistonlik yosh tadbirkorlarning muvaffaqiyatli loyihalari taqdimoti bo'lib o'tdi. Forumda Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Feruz Ablayarov spiker sifatida ishtirok etdi.

Tadbir ishtirokchilari yoshlarning tadbirkorlikda faol qatnashishi-

ga to'siq bo'layotgan omillar, yoshlar startaplari amalga oshirishda davlatdan qanday ko'mak zarurligi, xususan, yoshlar biznesini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy investitsiya turlarini muhokama qilishdi.

Sessiya O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha tadbir almashish hamda tavsiyalar ishlab chiqish uchun maydon yaratdi.



50 NAFAR MIGRANT MAHALLAGA QAYTDI

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruvi mexanizmlari va vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida yoshlar yetakchilari faoliyati tashkil etildi. Prezident qaroriga muvofiq, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shahar va shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilishi belgilangan.

Yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va "Yoshlar portal" elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ishlash, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbusini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishga ko'maklashish yetakchilarning asosiy vazifasi sifatida qayd etildi. Navqiron avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, yetakchilarning o'ziga birlashtirilgan mahallalarda maqom, baxshichilik va estrada bo'yicha tanlovlar, "Salomatlik uchun 5 000 qadam" yurish marafoni hamda "Yosh ekolog" aksiyasini o'tkazishi, shu bilan birga, mini futbol, voleybol, basketbol, stol tenisi, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan o'q otish bo'yicha musobaqalarini tashkil etishi zarurligi ta'kidlandi.

Bizning Payariq tumani "Toshhovuz" mahallamiz misolida aytadigan bo'lsam, shu davrga qadar, "Yoshlar daftari" va "Yosh-

lar dasturi"ning amalga oshirishi natijasida 46 nafar yoshning bandligi ta'minlandi, 16 nafar imkoniyati cheklangan va tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olindi. "Yoshlar daftari" jam'armalarida mahalliy byudjetning orttirilgan qismining 15 foizi va ijro hujjatlariga oid undiruvlar hisobidan mablag' shakllantirildi. Bu mablag'lar hisobidan 79 nafar yoshga ijtimoiy-moddiy yordam hamda bandligini ta'minlash maqsadida mehnat qurollari olib berildi va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatildi.

2022-yil "Yoshlar daftari"dan yordam olgan yoshlar soni 25 nafar, ya'ni 4,58 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yil 10,6 foizga oshdi. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi g'oyalarni amalga oshirish uchun qo'llab-quvvatlash maqsadida 550 million so'm miqdoridagi mablag'larni yo'naltirish orqali 25 nafar yoshga imtiyozli kreditlar ajratildi.

2022-yilda mahallamizdan 66 nafar yosh tashqi migratsiyaga chiqib ketgan bo'lsa, o'tgan vaqt davomida ularning 50 nafarini mahallamizga qaytarish, ish bilan ta'minlashga muvaffaq bo'ldik. Ayni paytda 16 nafar yosh chet elda ishlamoqda. Ularni ham yurtimizga qaytarish harakatidamiz.

Bugun mahalla yoshlar yetakchisi Prezident va yoshlar o'rtasida chin ma'nodagi vositachi, vakilga aylandi. Yoshlar muammolari mahalla yoshlar yetakchilari tomonidan mahallaning o'zida hal etilmoqda.

Fotima DEHQONOVA, Samarqand viloyati Payariq tumani "Toshhovuz" mahallasi yoshlar yetakchisi



YUZ

BILAN YUZLASHAYOTGAN GAZETA

Dunyoda juda ko'p mo'jizalar yaratilgan, lekin ular tasodifiy emas, xalqning ehtiyoji, iqtidori, zakovati tufayli yuzaga keladi. Hayotimizning bir bo'lagiga aylanadi. Aytaylik, kitob, elektr chirog'i, radio, televideniye, telefon... Gazeta ham shularning biri. Garchi ko'rinishi, shakli o'zgarib bilsa, mohiyati yo'qolgan emas. Binobarin, ularni yo'qotishga urinish ham non-donlik bilan barobar.

T o'rt yilcha burun ilk bor "Yoshlar ovozi" gazetasida maqolam chiqqan. Bu men uchun unutilmas kunga aylangan. Sababi bu gazetada iqtidorli, izlanuvchan va hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan bilimli yoshlarning bir-biridan qiziqarli maqola va motivatsion chiqishlarini o'qib kuch olardim. Gazetada "O'z kelajagim uchun ovoz beraman", "Yashil makon", "Imkoniyatlar eshigi", "Chustda zamonaviy sport maydonlari", "Ijodkor yoshlar e'tiborda", "Orzum ushaldi", "Intil-sak, imkoniyat topiladi" kabi dolzarb mavzudagi maqolalarim nashr etildi.

Gazeta – hayotning aksi, tarix ifodasi. Yillar o'tib, biz undagi bitiklar orqali hayotimizni tahlil qilamiz, ba-ho beramiz. Gazetaning inson ruhiyatiga ta'siri shundaki, u ichki intizomni o'rgatadi, ya'ni har kim yozganiga, aytgan so'ziga javob beradi. Binobarin, bu gapni, bu yozuvni o'chirib ham, kuydirib ham bo'lmaydi – tarixda qoladi. "Gazetalar o'lyapti" deya kimlardir ayuhannos solayotgan bir paytda yangi-yangi nashrlar dunyoga kelyapti. Gazeta odamni mushohadaga o'rgatadi. Undagi maqolani o'qib, fikr bildir-siz, mulohazalarinizi yozasiz.



Mahallada yoshlar yetakchisi bo'lib ish boshlaganimga ikki yil bo'ldi. Ish jarayonida bizga kitoblar, qo'llanmalar va gazeta-jurnallar juda kerakligini tushunib yetdim. Mahallada bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklar, iqtidorli yoshlarni ommaga olib chiqishda ham "Yoshlar ovozi"ning o'rni bo'lak. Sevimli gazetam har vaqt ish stolimda shay. Qandaydir savollar bo'lsa, ma'lumotlar kerak bo'lsa, gazeta-gazetalarim kanda qilmayman. Shu paytgacha 30 ga yaqin turli mazmundagi tanqidiy, tahliliy maqolalarim nashr qilindi. Mushtariylarga va hamkasblarim qo'lga yetib borib, fikr-mulohazalarini ham bildirishdi.

"Yoshlar ovozi" gazetasi yuz yillik dovoni zabt etmoqda. Gazeta bir asrlik faoliyat davomida jamiyatda eng dolzarb muammolarni olib chiqish bo'yicha ulkan tajriba maktabini

yaratdi va bu ishlar davom etmoqda. "Yoshlar ovozi" gazetasi mahallalardagi yoshlar yetakchilarining ham sevimli gazetasi va nashriga aylanib, o'zlarining ijodiy ishlari bilan ham ommaga namoyon bo'lishga erishdi.

Bugun jamiyatimizga matbuot har qachongidan zarurligini prezidentimiz bot-bot ta'kidlamoganda. Demak, xalqni ma'naviyatli, ma'rifatli qilishda gazetalarning o'rni beqiyos. Gazetani inson o'z qo'li bilan kashf etdi, endi esa o'z qo'li bilan yo'q qilishiga yo'l qo'ymasligimiz, uni asrab-avaylash va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish lozim. Bu borada biz, yoshlarining ham hissamiz bo'lishini unutmashimiz kerak. Qog'oz bor, fikr mavjud ekan, gazetalar yashayveradi.

Gazetaga televideniye ham, telefon va internet ham hech qachon raqobatchi bo'lmaydi yoki bo'la olmaydi. Chunki uning vazifasini boshqa hech qaysi axborot vositasi bajara olmaydi.

Otabek QOBILOV,
Chust tumanidagi "Tinchlik" mahallasi yoshlar yetakchisi

"Yosh tadbirkorlar" markazi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

MUSHTARAK MAQSADLAR SARI

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishi hamda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Biroq tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan, biznes g'oya va o'ziga xos tashabbuslarga ega yoshlar ishini nima bilan boshlashni bilmasa-chi? Natijada faoliyatini yo'lga qo'yish va moliyalashtirishda bir qancha to'siqlarga duch kelishi mumkin. Mana shu jarayonda ularga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish maqsadida o'tgan yilning noyabr oyida ochilgan markazga 7871 nafar yosh qamrab olingan.

– Tadbirkorlikning rivojlanishi ko'p omillarga bog'liq, – deydi O'zbekiston davlat universiteti talabasi Laylo Rahimova. – Bizga Javlonbek Ibragimov yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi Xorazm viloyati bo'limi rahbari Javlonbek Ibragimov. – Birinchi navbatda, tadbirkorning bilim, tajribasi va ishbilarmonligi muhim ahamiyatga ega. Tadbirkor menejment va iqtisodiy masalalarni puxta bilishi lozim. Biznesni rejalashtirish, xo'jalik faoliyatini tahlil etish, chiqimlarni kamaytirib, foydani ko'paytirish, huquq va psixologiya sohasi kabi bilimlarni egallash zarur. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish juda murakkab, texnika vositalari va texnologiyalar muttasil takomillashib bormoqda.

Javlonbek Ibragimovning ma'lum qilishicha, "Yosh tadbirkorlar" markazi biznes va tadbirkorlikka qiziqqan yoshlarni qo'llab-quvvatlaydi. Markazda tajribali tadbirkor va biznes ambassadorlar ularga soha bo'yicha kerakli bilim va tavsiyalar beradi.



HAMMANING QIZIQISHI INOBATGA OLINGAN

Markaz bilan yaqindan tanishganimizda 30 nafar ko'ngilli tadbirkordan tashkil topgan jamoa yoshlar uchun amaliyotga tatbiq etgan loyihalar ko'lami bizni hayratda qoldirdi. Ularning ayrimlari haqida ma'lumot bermoqchimiz.

"Bepul konsultatsiya" loyihasi yoshlarga tadbirkorlikka ilk odimidan to'xtatib faoliyat davriga qadar kerakli maslahat va tavsiyalar berishni maqsad qilgan va shu kungacha 23 nafar yoshga zarur huquqiy yordam ko'rsatilgan. "Mahorat darsi" ga 680 nafar yosh qamrab olinib, biznes va tadbirkorlik bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlar berilmoqda, tinglovchilar o'rtasida kommunikativ mu-loqot muhiti shakllantirilgan. "Upgrade pro" biznes maktabi – bo'lajak tadbirkorlarga sotuv va marketingni amaliy o'rgatish uchun tashkil etildi. Bu yerda 115 nafar yosh bilimni oshirmoqda.



“YOSH TADBIRKORLAR” MARKAZIGA 7871 NAFA YOSH QAMRAB OLINGAN.



– "Volontyorlar maktabi" loyihasida 2 oy tahsil oldim, – deydi Urganch davlat universiteti talabasi Laylo Rahimova. – Bizga Javlonbek Ibragimov muomala madaniyati, liderlik va volontyorlik sohasida bilim berdi. O'zining "Ay-ti English" loyiham haqida markaz mutasaddilariga ma'lumot berdim va jamoaga qo'shildim. Jamoamizda viloyatning eng iqtidorli yigit-qizlari yig'ilgan bo'lib, faolligi, kreativ fikrlashi va tashabbuskorligi bilan yoshlarga kerakli loyihalarni taqdim etmoqda.

Axborot texnologiyalari yoki tilni bilsangiz, mustaqil hayotda o'z o'rnini topib keta olasiz. Shu bois markazda 6 oylik "Ay-ti English" loyihasi 42 nafar yoshga axborot texnologiyalarini ingliz tilida o'rgatish hamda shu sohada biznes yuritish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida faoliyat yuritmoqda.

– Markaz qoshidagi "SMM" kursini tugatganimga 2 oy bo'ldi, – deydi 20 yoshli Akbarjon Ahmedov. – Ustozimiz Boburbek Bekberganov boshchiligidagi sohaning sir-asorini o'rgandim. Aso-san tadbirkorlik subyektlari, korxonalar va tashkilotlar brendlari, reklama materiallarini tayyorlash bo'yicha tajriba orttirdim. Hozir ingliz tilini o'rganish bilan yoshlarga kerakli sertifikatni qo'lga kiritish maqsadida "Registon granti" loyihasida ishtirok etyapman.

BIZ MARRANI BALAND OLGANMIZ!

"Yosh tadbirkorlar" markazi mas'ul-lari joylardagi maktab, oliy va professional ta'lim muassasalarida 3500 nafar yosh ishtirokida sohaga qiziqqan yoshlarni markazga jalb etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlari, davra suhbatlari o'tkazgan.

– Birgina Hazorasp tumanida o'tkazilgan loyihalarda 3100 nafar yosh qamrab olindi, – deydi Hazorasp tumani ambassadori Bunyodbek Rahimboyev. – Bizning maqsadimiz – har bir tumanda o'z obro'siga ega bo'lgan, muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan yosh tadbirkorlarni bir jamoa sifatida birlashtirish va mahorat darslari

ni davomiy o'tkazish orqali yoshlarni tadbirkorlikka jalb etishdan iborat. Markaz mas'ullarining so'zlariga ko'ra, joriy yilda 100 ming yoshni biznes, shaxsiy rivojlanish va zamonaviy kasblarga aloqador turli xil loyihalar bilan qamrab olish, 100 nafar yosh tadbirkor faoliyatini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish hamda 100 nafar shijoatli yoshni birlashtirgan holda viloyatda kuchli volontyorlar jamoasini shakllantirish reja qilingan.



Hozir "Biznesga qadam" loyihasi doirasida 30 nafar, "Yosh marketologlar" loyihasi doirasida 27 nafar yoshga zarur kasbiy ko'nikmalar berilmoqda. "Sotuv menejeri" kursi esa eng ommabop loyiha sifatida ishsiz va uyushmagan yoshlar qatlamini qamrab oladi. "Mening biznes g'oyam" 2 oylik o'quv dasturiga joriy yilning 10-iyunida start beriladi va 100 nafar bo'lajak tadbirkor o'qitiladi. Mahalliy investorlarni jalb qilishni maqsad qilgan "Investbox" loyihasi yoshlar uchun ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, sohaga endigina kirib kelgan yoshlarga tajribali tadbirkorlarni birlashtirgan holda faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xorazmlik yoshlarning tadbirkorlikka qiziqishini kuchaytirish fonda ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga harakat qilayotgan jamoaning natijalari e'tirofga arziydi. Yuk-saklarga parvoz qiladigan yoshlar safini kengaytirayotgan, bu yo'lda tinim bilmayotgan ko'ngilli, faol va zukko yoshlarimiz borligi qalbimizni g'ururga o'ldiradi.

Iltomjon ABDUSALOMOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Forum

"Digital Forum Karakalpakstan"



Yoshlarning axborot texnologiyalari, tadbirkorlik, innovatsiya yo'nalishlaridagi faolligini oshirish, loyiha va startaplarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpog'istonda turli tadbir va tanlovlar o'tkazib kelinmoqda.

Joriy yil 25-aprel kuni Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi tashabbusi bilan Nukus shahrida Raqamli texnologiyalar vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi, "IT PARK" va "Sirius IT Academy" ishtirokida Qoraqalpog'istonda birinchi marotaba "Digital Forum Karakalpakstan – 2024" forumi tashkil etildi. Forumda IT, innovatsiya, tadbirkorlik, o'quv markazlari, startap loyihalar va Nukus shahridagi barcha umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari, professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari, talaba-yoshlar jam bo'ldi.

Forumni o'tkazishdan maqsad Qoraqalpog'istonda raqamli texnologiyalar bo'yicha faoliyat yurituvchi IT korxonalarining xizmatlari va mahsulotlarini keng jamoatchilikka namoyish etish, yangi loyihalarni ijtimoiy-iqtisodiy amaliyotga tatbiq etishdir.

Forumda Nukus shahridagi barcha davlat va nodavlat o'quv markazlarining ko'rgazmalari ham tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlari va bo'lajak tadbirkorlar, ilmiy va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, ITga qiziquvchi yoshlardan iborat guruhlar tuzildi.

– Har yili "Kelajak kasblari" loyihasi doirasida 1500 nafar yosh raqamli texnologiyalar va chet tillarga o'qitiladi, – deydi Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlar ishlari boshqarmasi bosh mutaxassisi G'ayrat Seytekov. – Raqamli texnologiyalarni o'rganish uchun "Yoshlar daftari" fondi hisobidan subsidiya ajratish mud-dati Qoraqalpog'iston uchun bir yilga-

cha uzaytirildi. Bu prezidentimizning qoraqalpog'istonlik yoshlarga alohida e'tibordan dalolatidir.

Forumga Qoraqalpog'istondagi bir qator dasturchi va tadbirkorlar jam bo'ldi. Ular o'rtasida hamkorlik munosabatlari mustahkamlanibgina qolmay, oldindagi rejalar ham belgilab olindi. Startap egalari o'z loyihalari bilan qatnashdi.

– Forumda "Intuza" loyihasi bilan qatnashyapman, – deydi Alpamiz Adilbekov. – Tadbirkorlik subyektlariga axborot texnologiyalari – sayt yaratish, o'yin va bot ishlab chiqish xizmatlarimizni taklif qildik.

O'quv markazlarining yarmarkasi ham tashkil etilib, qo'shimcha bilim egallashni xohlovchi yoshlar shu yerning o'zida ro'yxatdan o'tish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Indira MAMBATNAZAROVA,
Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlar ishlari boshqarmasi matbuot kotibi



ZIYOLILAR MUSIQIY OQSHOMI



4-may kuni "Ziyo Forum" ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish xalqaro fondi qoshidagi Yoshlar markazi binosida yurtimiz talaba yoshlari taklifidan kelib chiqqan holda "Musiqiy oqshom" tanlovi bo'lib o'tdi.

Har bir yoshga tomoshabinlar oldida chiqish qilish va o'z musiqiy iste'dodini namoyon etish imkoniyati berildi. Ishirokchilar nafaqat o'z mahorat va iqtidorini, balki zarbali cholg'ularni chalishtirish va ko'nikmalarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Kechani o'tkazishdan

maqsad nafaqat folklor uslubidagi qo'shiqlarni yoshlarga taqdim etish, balki turli musiqiy uslublar bilan ularni tanishtirishdan iborat.

Tanlovda 100 dan ziyod yosh ishtirok etgan bo'lsa, tanlov yakunida 12 nafar yosh maxsus sertifikatlar hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Sirojiddin BOZOROV,
"Ziyo Forum" ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish xalqaro fondi matbuot kotibi

QARINDOSHILAR O'RTASIDAGI NIKOH

BUNING SALBIY OQIBATINI BARCHAMIZ BILAMIZ, AMMO "O'ZBEKCHILIK" DEB YO'L QO'YAVRAMIZ...

Shahruza SATTOROVA

Bir necha kunlardan beri o'sha qizaloq ko'z oldimdan ketmaydi. Mitti vujudida og'ir va bir umrlik dardini ko'tarib yurgan qizcha! Kattalarning o'ylamay, bilib bilmay qilgan ishi uchun tovon to'layotgan qizcha! Onasi terisiga zarar yetkazmasin deb uning qo'llarini ushlab olgan, atfandan "baliqcha"ni qichishish yoki og'riq bezovta qiladi. Uning och-pushti terisi doimiy ravishda ko'chadi, qosh va kipriklari umuman ko'rinmaydi.

Ha, angladingiz. "Ixtioz"ga chalingan go'dak. Uning terisi xuddi baliq tangachalaridek edi, bu dardning da'vosi yo'qligi, kasallikni butun umr yelkada olib yurishi kerakligini o'ylab, yuragim orqaga tortib ketdi. Qizaloq hali juda yoshligiga qaraganda, bu — tug'ma. Onasi sog'lom ekan, otasidan o'tganmikan? Yo qarindoshlar o'rtasidagi nikohning oqibati! Kelib chiqishi sabablari turlicha bo'lsa-da, xayolimga kelgan eng birinchi fikr shu bo'ldi. Va afsuski, fikrim tasdig'ini topdi: ayol xolasining o'g'liga turmushga chiqqan ekan...

Erta turmush qurish yoki yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh qanday oqibatlarga olib kelishini hammamiz yaxshi bilamiz. Ammo minglab oilalar, millionlab bolalar bu haqiqatning qurboni bo'ladi. O'zimizni turganda begona nima kerak; topgan-tutganim o'zimiznikiga bo'lsin, deb oqibati nima bo'lishini o'ylamay, bolalarining taqdirini xavfga qo'yayotgan ota-onalar oilaviy muammolar sabab yuzko'rmas bo'lib ketadi. Kattalarning qarori jabrdiydalari esa butun umr nogironlik, irsiy kasalliklar, aqliy nuqsonlar kabi o'nlab dardlar bilan kurashib yashaydi. Ikkinchi, uchinchi bolasini ham yerga ko'mayotganlar, dunyoga kelmasidan nobud bo'layotgan farzandlar sonini sanaymiz desak, sanog'ida adashamiz.

Nega odamlar shu oddiy haqiqatni anglagisi kelmaydi? Nasl oldidagi mas'uliyatini o'ylamay, yetti avlodini ham xatarga qo'yadi? Xalqimizning tibbiy madaniyati yetishmasligi oqibatini bu? Keling, savollarga birgalikda javob izlaylik.

GO'DAK OPICHLAGAN BUVI

Aτροφimizda yaqin qarindoshi bilan turmush qurganlar ko'p. Ularning orasida farzandi sog'lom tug'ilgan juftliklar ham bor. Feysbukdagi "Zamonaviy ayollar klubi" guruhida qarindoshiga turmushga chiqishning salbiy oqibatlari haqida so'rovnoma o'tkazildi. 200 ga yaqin ayol tanishlari yoki o'zi qarindoshiga turmushga chiqib, farzandi nosog'lom tug'ilgani yoki qarindoshlar yuzko'rmas bo'lib ketganini aytgan. So'rovnoma ishtirokchilarining xohishi o'laroq, ismlar oshkor qilinmagan.

Ayrim izohlarni keltiramiz:



"Men ammamga kelin bo'lganman. 2 farzandimni yerga berdim: biri ikki yarim yoshda edi, biri homila payti — 3 oyligida nobud bo'lgan. Shukrki, 3 nafar farzandim bor hozir, lekin har bir farzandimni Ollohdan tilab-tilab olganman, oson bo'lmag'an".

"Bir opam ammasiga kelin bo'ldi. Ko'pchilik qarshi bo'lgandi. Birinchi farzand sog'lom tug'ildi. Ana, hech nima qilmadi, ko'rdinglarmi, deyishdi. Afsuski, keyingi farzandi nogiron tug'ildi. Mana, yaqinda 10 yoshga to'ladi. Er-xotin ajrashadi, quda bo'lgan opa-uka yuzko'rmas bo'lib ketdi".

"Dugonamda shunday bo'lgan. Opa-singillarning farzandlari oila qurgan. Xolavachalar. Ikki farzandi nobud bo'ldi. Uchinchi sog'lom tug'ildi, ammo ol-ti oylikdan keyin o'sishdan to'xtadi, tengqurlaridan ortda edi. 2 yoshga to'lar vaqtida olamdan o'tdi. Oxirgi daqiqalarda ovqat yemay qo'yd, ko'zlari ko'rmay, faqat miyasi ishlab turdi. Oradan 3 yil o'tib, o'g'li bo'lishdi. Alhamdulillah, bolajon sog'omon! 3 nafar farzand dog'i va sabrning mevasi".

"Yaqin o'rtog'im xolasining o'g'liga turmushga chiqdi. Birinchi qizi sog'lom tug'ildi. Keyin o'g'li tug'ildi. Afsus, oyoq-qo'li falaj bo'lib tug'ilgan. 10 yoshda hozir, maxsus maktabga boradi. Boshqa farzand ko'rganini yo'q, chunki farzandi yana nosog'lom tug'ilishidan qo'rqadi".

"Er-xotin ikkovimiz qarindosh emasmiz, lekin qaynona-qaynotam amakivachcha bo'lishgan. 7 avlodga ta'sir qilishi rost, qizim "bilsa" sindromi bilan tug'ilgan. 18 ga to'ldi, turli kasalliklar bilan kurashib keladi".

"Shanba kuni edi. Ishdan chiqayotganimda bir ayolga duch keldim. Nabirasini "Bolajon" telekanaliga ko'rsatuvga olib kelgan ekan. Eshikdan kirishda qorovullar "bugun ko'pchilik mualliflar ishga kelishmaydi, telefon qilib kelmabdi-da", deyishayotgan ekan. Keyin mendan

"Beruniy" metrogacha qanday borishni so'radi. Yo'lim metrogacha ekanligi uchun "yuring, ko'rsatib yuboraman", dedim. Haligi ayol nabirasi — qizaloqni (4-5 yosh edi) orqasiga ko'tarib oldi. "Keling, yordamlashaman, xola", desam, "Yo'q, o'zim eplayman", dedi.

Xullas, metroda gaplashib ketdik. Aytishicha, qizaloq jigar yetishmovchiligi kasalligiga chalingan. Borgan sari kasallik natijasida jigari qurib borayotgan ekan. Har 4-5 oyda bir marta Qoraqalpog'istondan Toshkentga, Peditriya markaziga, bolani davolagan olib kelishar ekan. Nima sababdan bunaqa kasalga chalingan desam, "Bu kasallik tug'ma, — dedi xo'rsinib. — O'g'limga singlimning qizini olib berganman, shifokorlar qarindoshlik turmushi natijasida bu deb aytyshdi". Qizaloq o'zi yurishga qiyinlar, oyoqlarida mador yo'q ekan. Shu sababdan ko'tarib yurisharkan. Yoshi katta, to'lachadan kelgan, ko'zlari mungga to'la ayol jonsizgina qizaloqni orqasiga opichlab olgan manzara anchagacha yodimdan chiqmadi, ancha vaqtgacha o'ylab qiymaldim", deydi Gulzoda Safarova.

SOG'LOM OTA-ONADAN NEGA NOGIRON BOLA TUG'ILADI?

Ota-onasi sog'lom, irsiy kasalliklari bo'lmasa, nega farzand nosog'lom tug'iladi? Bu savolga javobni Buxoro davlat tibbiyot instituti bitiruvchi kurs talabasi Mirjalol Jumaqulov sodda qilib tushuntirib berdi:

"Tibbiyotda yaqin qarindoshlar bilan oila qurishning salbiy oqibatlari ko'pligi isbotlangan. Uning asosiy sababi irsiy xastaliklarning ko'payib ketishi bilan bog'liq. Olimlarning qayd etishicha, yaqin qarindoshlar nikohi tufayli saksonga yaqin kasallik kelib chiqishi mumkin. Jumladan, tug'ma aqliy zaiflik, quyvonlab, bo'ri tanglay,

xromosom kasalligidan daun xastaligi, bullyoz epidermoliz, gemofiliya, temir moddasining oshib ketishi, aqliy va jismoniy o'sishdagi jiddiy oqsollik kabi.

Bu kasalliklarning hech biri "shunchaki kasallik" emas, aksariyati da'vosiz, butun umr davom etadigan dard. Masalan, tug'ma nogironlikni olaylik. Tug'ma nogironlik tufayli bir yilda 303 mingdan ziyod bola hayotining birinchi to'rt haftaligida vafot etadi.

50 foiz holatda tug'ma nogironlik sabablarini bilib bo'lmaydi. Ammo tibbiyot bunday anomaliyalarning paydo bo'lishi ehtimolini oshiruvchi qator omillarni aniqlagan. Qonning aralashuvi (yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh) tug'ma nogironlikning asosiy va eng ko'p kuzaatilgan sabablaridandir. Shuningdek, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohdan bo'lgan homiladorlikda homilaning nobud bo'lishi, chaqaloqning ilk oylardagi o'limi, aqliy zaiflik ehtimoli ikki baravar-gacha oshadi.

Genetiklar yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohda irsiy kasalliklar va tug'ma nuqsonlar qon bir bo'lganligi uchun keskin darajada oshib ketishini ta'kidlashadi. Begonalar oila qurganda esa kuchli gen kuchsizini yengadi, boshqa tomonning o'sha xastaligiga qarshi tura oladi. Shuning uchun ba'zi davlatlarda qarindoshlar o'rtasidagi nikoh qonun taqiqlangan.

To'g'ri, tibbiyot rivojlanmoqda, bundan besh-o'n yillar avval imkonsiz tuyilgan muolajalar amaliyotga tabiiq etilmoqda. Ammo hozircha tibbiyot qarindoshlar o'rtasidagi nikohning salbiy oqibatlariga yechim topolganini yo'q. Buning oldini olishning yagona yo'li — unga yo'l qo'ymaslikdir".

TOVONINI AVLODLAR TO'LAYDI

Xalqimizning mehmondo'stligi, odamiyligi, muqaddas oila qadriyatleri, kattalarni hurmat qilish kabi fazilatleri bilan hamisha faxrlanib kelingan. Ammo fazilatlarini tarannum etish bilan birga ayb, nuqsonlardan ham ko'z yummaslik, ularni tuzatishga intilish kerak. O'zbekchilikning eng og'riqli nuqtalaridan biri, shubhasiz, qarindoshlar o'rtasidagi nikohga yo'l qo'yilishidir. O'zimizni, sinalgan, jigarim, begonaga kunim qolmasin qabilidagi qarashlar nafaqat bolalar salomatligiga salbiy ta'sir qiladi, ba'zan qarindoshlik rishtalariga ham putur yetkazadi.

Avvalo, tibbiy jihatdan, qolaversa, qurilayotgan oila doimo mustahkam turishiga hech kim kafolat bera olmas ekan, demak, qarindoshlar orasidagi nikohga "xo'p" deb bo'lmaydi.

Zotan inson hayoti davomida qabul qiladigan noto'g'ri qarorlar uchun nafaqat o'zi, balki avlodlari ham tovon to'laydi. Buning oldini olish uchun esa kelajak oldidagi mas'uliyatni his qilish, oqibatlar bilan emas, muammoni paydo qiluvchi sabablar bilan kurashish kerak. Shunday ekan, qarindoshga qiz bermang, qarindoshdan qiz olmang!

OTA-ONALAR FARZAND TARBIIYASIDA QANCHALIK MAS'ULIYATLI?

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



FARZAND TARBIIYASIGA KIM ENG KO'P TA'SIR O'TKAZADI?

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlari O'zbekistonda ota-onalarning farzand tarbiyasi va ta'lim olishidagi ishtirokini aniqlash maqsadida 7-22 yosh oraliqidagi farzandlari bor ota-onalar orasida so'rov o'tkazdi. So'rovda 3 602 nafar ota-ona ishtirok etdi (N=3 602), ularning o'rtacha yoshi 43 yosh. Respondentlarning 75 foizini ayollar, 25 foizini esa erkaklar tashkil etdi. Respondentlar fikriga ko'ra, farzand tarbiyasiga onasi, otasi va aka-ukalari eng ko'p ta'sir o'tkazadi. 12,8 foizi o'qituvchilarning ham ta'siri borligini ta'kidlagan.

FARZANDINGIZ KELAJAGINI TASAVVUR QILASIZMI?

Farzandingiz kelajagini qanday tasavvur qilasiz, degan savolga respondentlarning 78,4 foizi ma'lum bir kasbning mutaxassisi, 8,8 foizi moddiy ta'minlangan inson, 5,4 foizi tadbirkor, 5,3 foizi davlat xizmatchisi, deb javob bergan bo'lsa, 2,1 foizi biror narsaga erishishiga ko'zim yetmaydi yoki tasavvur qila olmayman, deb javob bergan. So'rov natijasiga ko'ra, ota-onalarning 94,6 foizi farzandi kelajagi haqida o'zaro suhbatlashib turishini, 86 foizi fikrlari bir-xil ekanligini ma'lum qilgan. Ota-onalarning 97,8 foizi farzandi bilan uning bo'lajak kasbi va qiziqishlari to'g'risida suhbatlashib turishini, 2,2 foizi esa umuman bu haqida suhbatlashmaganini bildirgan. Ularning 64,5 foizi qiz farzandning ota-onasi bo'lib, 40 foizi oliy ma'lumotga ega.

Ota-onalarning 83,4 foizi farzandi tanlagan kasbni ma'qullashini, 1,7 foizi umuman ma'qullamasligini aytgan.

TALABCHANLIK HAM, NAZORAT HAM YO'Q

Respondentlarning 26,6 foizi farzandining kasb tanlashida ota-onasi turtki bo'lganini bildirgan bo'lsa, 53,5 foizi bu to'liq farzandining tanlovi ekanligini bildirgan va 80 foiz ota-onalar farzandining qarorini qo'llab-quvvatlashini aytgan. 16,2 foiz respondent farzandi fikrini qo'llab-quvvatlamasligini bildirgan.

Respondentlarning 53,9 foizi farzandining ta'lim olishi va uy ishlarini bajarishida talabchanlik qilishini, 37,1 foizi esa shunchaki nazorat qilib turishini, 8,3 foizi esa talabchanlik ham, nazorat ham qilmasligini bildirgan.

So'rov natijalariga ko'ra, ota-onalarning bor yo'g'i 56 foizi farzandining ta'lim olishdagi yutuqlaridan to'liq qoniqishini bildirgan. 12,6 foizi qoniqarli emas, deb baholagan.

So'rovda ishtirok etgan respondentlarning 75 foizi farzandi qo'shimcha darslarga borishini bildirgan. Qo'shimcha darslarga qatnamaydi, deb javob berganlarning 50 foizi o'rtacha oylik daromadini 3 million so'mgacha deb ko'rsatgan, ya'ni farzandining qo'shimcha darslarga qatnashi oilalarning moliyaviy holati bilan bog'liq.

15,6 foiz respondent farzandining o'qituvchisi bilan umuman muloqot qilmasligini, 20,4 foizi haftada bir marotaba muloqot qilib turishini aytgan.

XULOSA O'RNIDA

So'rov natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda ota-onalar farzandining ta'lim olishi va kelajakdagi hayoti haqida g'amxo'rlik qilmoqda. Lekin shunga qaramay ota-onalar orasida farzand tarbiyasi va uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlamaydiganlari ham kam emas.

Shuningdek, bugungi kunda bolalarning qo'shimcha darslarga qatnash ko'rsatkichlari yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi, buning asosiy sababi esa maktablardagi ta'lim sifatining pastligiga borib taqaladi.

MHTI tahlilari asosida tayyorlandi.

AYOLLARNI HIMOYA QILISHI KERAK BO'LGAN QONUN ULARNI JAZOLAMOQDA



O'zbekistonda ayollarni himoya qilishi kerak bo'lgan qonun ularni jazolash uchun ham xizmat qilmoqda. Bu haqda Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYU) tadqiqotchilari O'tkirbek Xolmirzayev va Zayniddin Shamsidinov tayyorlagan O'zbekistonda ayollarga nisbatan maishiy zo'ravonlik huquq buzarlklarining sud amaliyotiga doir tadqiqotda aytib o'tilgan.

Sudlar oilaviy zo'ravonlik holatlari bo'yicha ma'muriy huquqbuzarliklarda jabrlangan ayollarning o'zini ham MJtKning 59-2-moddasi — oilaviy zo'ravonlikda ayblab, javobgarlikka tortayotganini ko'rsatdi. Bunda jazo choralarini odatda ruhiy yoki jismoniy zo'ravonlikka uchragan ayollarning zo'ravonga qarshi javob harakatlari — masalan, haqorat qilish, unga javoban kuch ishlatish orqali jismoniy zarar yetkazish kabi holatlar uchun qo'llanilmoqda.

Masalan, Andijon viloyatidagi ayrim tumanlarning sud qarorlari o'rganilganda, tasodifiy tanlab olingan 10 ta ma'muriy ishning 6 tasida jabrlanuvchi ayolning o'zi ham javobgarlikka tortilgani yoki zo'ravonlikda ayblangan ma'lum bo'ldi. Tadqiqotga ko'ra, bunday amaliyot asosan Andijon, Farg'ona, Toshkent viloyatlari sudlari tomonidan qo'llanilayotgani oydinlashgan.

Misol uchun bir holatda (3—1702—2301/1596-sonli ish) huquqbuzar o'z xotinini urishi oqibatida xotinini javob qaytaradi, ular bir-biriga tan jarohati yetkazadi, sud har ikkisiga ham jarima jazosi tayinlaydi.

E'tiborga molik yana bir jihat shuki, oilaviy zo'ravonlikka doir o'rganilgan 10462 ta ishning 96 foizini erkak, 4 foizini ayol sudyalari ko'rib chiqqan.

Ayollarni himoya qilish uchun ishlab chiqilgan qonunlar ular jabrlangan holatlarda ham ularning o'zini javobgarlikka tortilishiga olib kelmoqda. Bu esa zo'ravon erkakning yarashuvga erishish, jabrlanuvchi ayol ustidan ariza yozish orqali kelishuvga majburlash usullaridan biriga aylanganini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar bu paradoks hali dunyoning hech bir huquqiy tizimi amaliyotida uchraganini ta'kidlagan.

Tadqiqot

RISHTONLIK YOSH KULOLLAR

Farg'ona haqida so'z borganda, albatta, hunarmandchilik ham faxr bilan tilga olinadi. Qariyb sakkiz yuz yillik tarixga ega Rishton kulolchiligi esa xalqimizning durdonalaridan sanaladi.

Hammaidan ham e'tiborlisi, bugungi kunda yoshlar tomonidan bu hunar sirlarini o'rganishga ishtiyoq kuchayotgani, uning yangi g'oyalari va uslublar bilan boyitib borilayotganidir. Bugun rishtonlik yoshlar jahonning ko'plab davlatlarida o'z mahsulotlarini namoyish etib, ularni hayratga solmoqda.

Ayni paytda tumanda yuzdan ortiq usta-kulol faoliyat olib borayotgan bo'lsa, tabiiyki, ularning har biri qo'liga kamida 5-6 ta shogird tarbiyalanayapti. Soz loyga ishlov berishdan tortib, idish yoki buyum yasash, rang va sir berish, gul solish, pishirish, tayyor mahsulotni sotishgacha jarayonning har bir bo'g'inida tarbiya topgan yoshlar o'z ishining ustasiga aylanib bormoqda.

Birgina "Mingboshi keramik" oilaviy korxonasi o'z mahoratini namoyon qilmoqda. Abduvohob Solijonov, Nargiza Umarova, Nilufar G'ulomova, Adhamjon Norinboyev, Ismoiljon G'ulomov, Tavakkal Usmonaliyev kabi yoshlar usta naqqosh darajasiga yetib kelishgan. Ularning sopol idish va buyumlarga gul solish, naqsh chizishdagi mahoratlarini ko'rib, tasanolar aytgandek keladi.

– Yoshim o'n oltida. Ustozlardan idishlarga naqsh solishni o'rganyapman. Buning uchun sabr va chidam, iqtidor kerak. Ajablanarlisi, buyumlarga chizilgan naqsh va gullarning hech biri bir-biriga o'xshamaydi, bir-birini takrorlamaydi, – deydi Anvarjon Azimov.

Ustaxonada berilib ishlayotgan yosh naqqosh va kulollar mehnati samarasi sifatida terib qo'yilgan turfa rang va shakldagi sopol buyumlar mo'jizaning o'zi. Axir, bir muddat avval qo'lga olingan oddiy loy vaqt o'tib ko'zni quvontiruvchi san'at asariga aylinishini nima deb atash mumkin?! Insoniyatning avvali-yu oxiri ramzi hisoblangan tuproq va loy, dunyoning o'tkinchiligi-yu o'zgaruvchanligiga ishora qiluvchi charx, mehr bilan

ishlov berilgach, chertganda ajabtovur jarang beruvchi idishlar kishini o'ziga rom etadi.

– Nilufar keramik" oilaviy korxonasi rahbari Shoiraxon Qodirova bilan suhbatimiz ham kulolchilik an'analarning bardavomligi, yoshlarning bu hunarga qiziqishi xususida bo'ldi.

– Oilaviy korxonada tashkil qilganimizga o'n uch yil bo'ldi. Bugunga kelib, 20 dan ziyod xotin-qizni ish bilan ta'minlaymiz. Asosan, ishsiz ayollarni uyda o'tirib mehnat qilishga o'rgatganimiz, kasanachilik asosida ish olib boramiz. Ustaxonamizga kelib ishlovchilar ham bor, – deydi u. – Oilamizdagi barcha aka-ukalar usta-kulol sanaladi. Har birining o'z yo'nalishi, mahsulotlariga xaridorlari bor.



Korxonada sovg'a uchun suvenir buyumlar ishlab chiqariladi, miniatyura va natyurmort janriga oid bezak shakllar beriladi. Zero, kulolchilik faqat choynak-piyola, kosa-tovoq-dangina iborat emas. Odamlarning didi, talabiga monand ravishda sopol buyumlarining turli ham ortib bormoqda. Misol uchun, tarixiy shaxslar,



ertak qahramonlari, chol va kampir, kelin-kuyov, jonivorlar, mevalar tasviri tushirilgan buyumlar ayni paytda xaridorgir sanaladi. Qo'shni mamlakatlarga, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Gretsiya kabi xorij davlatlariga eksport qilinayotgani ham bundan dalolat beradi.

Shoxsanamxon Yoqubovanning mazkur korxonada ish boshlaganiga ko'p bo'lmadi. Lekin qo'liga tegmay ishlayotgani, chaqqon harakatlari, har bir detalga ishonch bilan ishlov berishiga qarab, ishtiyoq va harakat maqsadlarining amalga oshishi garovi ekaniga amin bo'ladi kishi. "Yoshim 24 da. Kulolchilik tumanimizning yuzi ekanidan faxrlanam. Mahallamiz ayollari bilan shu korxonada ishlayapmiz, hunar sir-asrorlarini o'rganyapmiz. Yangi-yangi gul va naqshlar, takrorlanmas bezak va shakllar zerikishga qo'ymaydi. Har bir buyumni qo'lga olib, cheksiz xayol-larga berilish mumkin", deydi u.

E'tiborlisi, sohaga zamonaviy texnologiyalar tatbiq etilmoqda, buyumlar dizayni va shakllar xilma-xilligiga e'tibor qaratilmoqda.

Muhammadrizo Nabijonov ana shunday yoshlardan biri. Sakkizinchi sinf o'quvchisi bo'lgan Muhammadrizo IT sohasini qunt bilan o'rganyapti. O'zi kulollar farzandi bo'lgani uchunmi, ikki sohani uyg'unlashtirib, kompyuter yordamida buyumlar shakli, ularga solinadigan naqsh-gullar, tasvirlarning yangi va o'zgacha turlarini kashf qilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Rishton kulolchiligi kun sayin rivojlanib, usta-kulollar safi yoshlar bilan kengayib borayotgani quvonarlidir.

Ma'sudjon SULAYMONOV,
O'za muxbiri

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN HUNARMANDLAR BUYUMLARI KO'RGAZMASI

Dovud ABIBULLAYEV, O'za muxbiri

"Hunarmand" birlashmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali, Yoshlar ishlari agentligi, "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan nogironlarni qo'llab-quvvatlash, ular yaratgan hunarmandchilik mahsulotlarini realizatsiya qilish maqsadida yarmarka tashkil etildi.

Orolbo'yining barcha shahar va tumanlaridan tashrif buyurgan "Hunarmand" birlashmasi Qoraqalpog'iston filiali, Nogironlar jamiyati Qoraqalpog'iston bo'limi, O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi Qoraqalpog'iston hududiy

bo'limi, "O'zbekiston Maxsus olimpiadasi" jamoat birlashmasi Qoraqalpog'iston bo'limi a'zolari o'zlarini tayyorlagan buyumlari bilan ishtirok etdi.

Yarmarkada turli naqshlar bilan bezak berib tikilgan milliy liboslar va quroq ko'rpachalar, ko'rpa-to'shaklar, suvenirlar, turkman, qozoq va boshqa millatlarning milliy kiyimlari, uy-ro'zg'or buyumlari namoyish etildi.

Yarmarkada chet ellik mehmonlar ham ishtirok etib, nogiron hunarmandlar tayyorlagan turli buyumlar bilan tanishdi. Bu yerdagi ajoyib buyumlar ularda katta taassurot qoldirdi.



Foto: Maqsad HABIBULLAYEV (O'za)



MAHALLAGA SPORT MAYDONCHASI SOVG'A QILING!



Sport vazirligi tashabbusi bilan 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni arafasida respublikamizning barcha tuman, shaharlarning har birida bittadan sport maydonchasi qurib berish bo'yicha tanlov o'tkazilmoqda.

Sport maydonchalari ovoz berish yo'li bilan g'olib bo'lgan mahallalarga qurib beriladi. Ovoz berish uchun Sport vazirligi hududiy boshqarmalari tomonidan har bir mahalla infratuzilmasi, sharoitlari o'rganib chiqilib, har bir tumanidan sport bilan shug'ullanish imkoniyati umuman yo'q yoki holat qoniqsiz deb topilgan 3 tadan mahalla tanlab olinadi. Tanlovning yangi mavsumida tanlab olingan mahallalar tarkibi o'zgaradi.

Ovozlar 10-maydan 1-iyungacha tashabbus.sport.uz saytida qabul qilinadi.

Loyihada faol ishtirok eting va mahallangiz uchun sport maydonchasi yaratib oling!

GRANT UCHUN YANGI TARTIB:

TALABALAR QANDAY FIKRDA



6-may kuni Prezident huzurida oliy ta'lim yo'nalishlarini optimallashtirish, qabul va malaka tizimlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritildi. Qayd etilishicha, O'zbekistonda oliy o'quv yurtlariga o'qishga qabul qilishda adolatni ta'minlash, eng qobiliyatli abituriyentlarning davlat grantlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash choralari ko'riladi.


“

KONTRAKTGA KIRGAN TALABA YAXSHI O'QISA, KEYINGI YILI GRANTGA O'TISHI MUMKIN.



Dinara SULTONOVA:

"Mutloqa qarshiman. Bu oliy ta'lim ichidagi korrupsiyani kuchaytirishi va talabani dekanat yoki biror o'qituvchiga qaram qilib qo'yishdan boshqasiga yaramasa kerak. Negaki, bizda baholash tizimi juda absurd. Oraliq va yakuniy baholarga qaraladi deyilsa, aksariyat o'qituvchilar bu ishlarni tekshirmaydi ham, talaba ism-sharifiga qarab, bilganicha baho qo'yaveradi. Masalan, xorijdagi oliy ta'lim muassasalarida baholash tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Talabaga beriladigan topshiriqlar ham, talabaga qo'yilgan baholar ham bir necha bosqichli tekshiruvdan o'tadi. Bizdagi baholash tizimi mutlaqo talabga javob bermaydi".



Sevara ODILJONOVA:

"Menga bu qaror yoqdi. Chunki ba'zi magistraturaga kirish uchun harakat qilayotgan talabalarni aytmasa, ko'pgina kursdoshlarim o'qishni tashlab qo'yishgan. Bu yangilik ularni harakatga undaydi, deb o'ylayman. Kichik ball yetmay qolgan tufayli kontraktga kirgan bo'lsa-yu, keyingi yildan grantda o'qish imkoni bo'lsa! Bu ajoyib yangilik".



Shaxboz JUMABOYEV:

"Bizning bilim yurtimizda guruh sardoriga iltimos qilib, 4 bahoni 5 ga, 3 ni 4 ga aylantirib olish mumkin, chunki ustozlar uni yaxshi taniydi. Umuman darsga kelmasdan ham tanish-bilishchilik bilan 4-5 olib yurganlar bor. Ochig'i, bu baholash usullari bilan shaffof tizim bo'lishi mumkinligiga ishonmayman. Korrupsiya va nepotizm avj olsa kerak".

Yuqoridagi fikrlarda jon bor, albatta. Bu taklif talabalarni bilim olishga undash, OTMga kirgach, o'qishni tashlab qo'yish kabi holatlarni kamaytirish uchun ishlab chiqilgan aniq. Ammo tashabbusga putur yetkazuvchi omillar ham yo'q emas. Mas'ul yuqoridagi kabi e'tirozlarni ham hisobga olib, tizimni yanada takomillashtirish choralari o'yilasa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'z muxbirimiz

JADIDLAR BURCHAGI

BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBİYALASHGA XIZMAT QILADI



"Jadid" so'zi yangilanish ma'nosini anglatib, yangi, zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tatbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistonda milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'z xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi.

XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdi. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik bosh maqsad qilib belgilandi.

Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki

fikrlovchi yoshlarni o'z ortidan er-gashtira olardi.

Jadidlar yoshlar Turkiston kela-jagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi va har xil illatlardan xalos bo'lish kerakligini ta'kidladilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy yosh yigitlarni butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdi. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik bosh maqsad qilib belgilandi.

Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki

Laylo TOJIBOYEVA,
Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi Axborot kutubxonasi mutaxassisi

ILM OLISH IMKONIYATI CHEKLANMAGAN



Abdurashid DO'STBOYEV

"HECH KIMDAN KAM EMASMAN"

Insonda ko'rish, eshitish, harakatlanish imkoniyati cheklanishi mumkin. Lekin bilim olishi uchun imkoniyatlar cheklanmaydi. Ilm olishga, o'rganishga xohish-istak bo'lsa, bas.

"Sen imkoniyati cheklanganlar maktabda ishlashing kerak, oddiy maktabda ishlashga qiyinalasan, deganlar ko'p bo'lgan. Lekin men ularga quloq solmadim. 2020-2021-o'quv yilidan 15-maktabda ish boshladim, yaqinda 4 yil bo'ladi. Menga o'xshagan imkoniyati cheklanganlarning ham sog'lom insonlardan kam joyi yo'q, deb bilaman. Hujjat ishlari, baholash kabi masalalarda muammo tug'ilmagan. Chunki biz ham mobil telefon, kompyuterdan foydalanish imkoniga egamiz. Bu uchun maxsus ilovalar bor", - deydi Abdurashid Do'stboyev.

UNDA SHIJOAT BOR

"Abdurashid tanlagan kasbini juda yaxshi ko'radi. Hatto o'quvchilarga darsdan tashqari qo'shimcha to'garaklar ham tashkil qilgan. Kichikligidanoq viloyatimizda ko'zi ingliz tili o'qituvchisi yo'qligi uchun shu kasbni egallashga harakat qildi va bunga erishdi. Unda ba'zi sog'lom insonlarda yo'q shijoatni ko'rib quvonaman", - deydi Uychi tumanidagi "Mezavor" mahallasi yoshlar yetakchisi Bobomurod Razzoqov.

Abdurashid Do'stboyev o'qituvchi sifatida yoshlarga ko'proq kitob o'qishni tavsiya qiladi. Chunki kitob dunyoqarashni kengaytiradi, hayotga qarashni o'zgartiradi. To'g'ri, kitob o'qigan inson hayotda hech qachon qozilmaydi. Asosiysi, o'qib, o'rganib, izlanishdan to'xtamaslik. Boshqalarga o'xshamaslik esa, ayb emas.

Sarvinoz KOMILOVA, "Yoshlar ovozi" muxbiri

Ko'zlari ko'rmasa-da, bashariyat tarixida o'chmas iz qoldira olgan shunday insonlar borki, ularning ishlari, hayot yo'li hammaga o'rnak bo'la oladi.

Masalan, bugun deyarli har bir ko'zi ojiz inson o'qishni biladi va buning uchun ular Lui Braydan minnatdor bo'lishi lozim. Qizig'i, Brayning o'zi ham ko'zi ojiz bo'lgan. 1809-yilda Fransiyaning Kuvre shaharchasida tug'ilgan Lui uch yoshida otasining ustaxonasiga kiradi va bir asbobdan jarohatlanadi. Jarohat ko'zi ojizlikka sabab bo'ladi. Brayda harbiylar qorong'ida foydalanadigan yozuvni o'zi kabilab o'qishi uchun qo'llash fikri tug'iladi va buning ustida ish boshlaydi. 20 yoshli Lui 6 nuqtali kodga asoslangan, bugungi kunda butun dunyoda foydalaniladigan alifboni yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Ko'rish qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotgan ko'zi ojiz insonlar tarixini o'rganar ekan, ularning matonatiga qoyil qolasiz.

Bunday matonat sohiblari oramizda ham ko'p. Ulardan biri namanganlik Abdurashid Do'stboyev. Yoshi 30 da. Bolaligida baxtsiz hodisa tufayli ko'z nuridan ayrilgan. Hozir Uychi tumanidagi 15-maktabda ingliz tili o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. U avvaliga ixtisoslashtirilgan maktab-internatni, keyin kasb-hunar kollejini tamomlagan va 2016-yili Namangan davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti ingliz tili yo'nalishiga maxsus grant asosida o'qishga qabul qilindi.

Bir kam dunyo



XONIMLAR VA JANOBLAR, QARSHI OLING: "U".

Gulruh MARKAYEVA

U Ali. 5 yoshda. Bog'chaga borishni yomon ko'radi, o'yinchoqlaridan tez zerikadi, tezroq katta bo'lsa-yu, akasi Doniyor o'xshab maktabga borib, matematik mashqlarni bajarsa.

U Doniyor. 13 yoshda. Maktabdan nafratlanadi. Telefon o'yinlarini sevadi, qani endi maktabi yopilib ketsa-da, tinmay telefon o'ynasa, xuddi akasi Sarvarga o'xshab.

U Sarvar. 19 yoshda. O'qishga shu yil ham kira olmaganidan alami kelib, kompyuter va telefon o'yinlariga berilib ketdi. Marjonani sevib qolgan yoki shunchaki unga tuni bilan uxlamay xabar yozib chiqishni yaxshi ko'radi.

U Marjona. 18 yoshda. Shu yil o'qishga kirdi. Lekin universitet u kutganidek joy emasligini anglaganidan beri tezroq ishga kirib, pul topib, "hobby"lariga ko'proq vaqt ajratishni istaydi. Xuddi opasi Hilola kabi.

U Hilola. 25 yoshda. Hamshira. Kasalxonada ishlashdan zavqlansada, ba'zan ota-onasi, uka-singillariga deyarli vaqt ajrata olmaydi, o'zini doim horg'in, tushkun his qiladi. Odamlar undan faqat to'y haqida so'raydi. Lekin u hali turmush qurish niyatida emas, onasining qon bosimi o'ynaydi, endi uning rayiga qaramasdan turmushga berisharmish. Hilola esa faqat erkin bo'lgisi keladi, Anora xolasiga o'xshab.

U Anora. 32 yoshda. O'z biznesi, alohida uyi va chiroyli mashinasi bor mustaqil ayol. Turmush qurmagan. Ha, o'zini baxtli, lekin yolg'iz his qiladi. Mahalladagi xotinlar unga doim o'qayib qaraydi. "Bir balosi bor" mish. Anora parvo qilmay deydi-yu, lekin u odamlardan to'yib ketgan. Chet eldagi sinfdosh do'sti Bahodir kabi.

U Bahodir 32 yoshda. Biznesmen. Yevropada yashaydi, o'sha yerda bir qizni sevib qolib, unga uylandi va bitta shirin qizalog'i bor. U baxtli, erkin. Lekin o'zini ota-onasi oldida doim aybdor his qiladi. Kenja farzand bo'la turib, keksa ota-onasini opalariga tashlab ketganini o'ylab qiyinaladi, lekin qaytgisi kelmaydi. Otasi Rahim boboni ko'p eslab, sog'inadi.

U Rahim bobo 68 yoshda. Mehribon ota, bobo, kasbining ustasi, mo'hir duradgor. U yasagan eshiklar, beshiklar odamlarning ko'nglidan joy olgan doim. 68 yoshda bo'lsa ham, bobo velosipedda yuradi, bir umrlik orzusi "mashina olish" bo'lgan. Lekin bolalarini o'qitib, uyli-joyli qilib, nevaralariga to'y qilib, o'ziga kalish ham olmagani. U hayotidan rozi, lekin qani endi hammasini qaytadan yashay olsa, qani yana 5 yoshli bola bo'la olsa-da, dardsiz, anduhsiz, g'uborsiz hayotda qayta yashasa. Ha, u o'z nabirasi Aliga qarab turib, unga havas qiladi...

YO'QOTISH TIKLANISHDAN

Ekologiya




10 BAROBAR KO'P

Sayyoramizda iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, o'rmonlarning kesilishi, ifloslanish va boshqa bir-biri bilan bog'liq ko'plab muammolar oqibatida ekologik inqiroz keng tarqalmoqda. Afsuski, global iqlim muammolari yurtimizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Shuning uchun bugun mamlakatimizda ekologik muammolar va ularni keltirib chiqarayotgan omillarni aniqlash davlat va jamiyat hayotida hal qilinishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan biriga aylangan.

Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni asosida suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilab olingan.

Unga ko'ra, respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, irrigatsiya tizimi va suv tejavchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va "yashil energiya" texnologiyalarini keng jori qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish, ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, har yili bahor va kuz oylarida o'tkazilayotgan "Yashil makon" loyihasi doirasida 200 million tup daraxt ekilishi belgilab olingan bo'lib,



FUQAROLARIMIZ YURTIMIZDAGI EKOLOGIK VAZİYAT VA EKOLOGIK MUAMMOLARGA BEFARQ BO'LMASDAN, ISLOHOTLARGA O'Z HISSASINI QO'SHISHI, O'ZI VA YAQINLARI KELAJAGI HAQIDA QAYG'URISHI KERAK.

2030-yilga qadar respublikada yashilik darajasini 30 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, yuqoridagi islohotlar doirasida "Avtomobilsiz kun", "Suvni asrash kelajak omili" kabi loyihalar ham yaxshi samara berayotir.

Lekin shu bilan birga, ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, yer yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur qilmoqda. Jahon "Yovvoyi tabiat", "Global Footprint Network" xalqaro jam'armalari va Londonning Zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970-yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foiz (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foiz, yer usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foiz) qisqargan.

Har yili 11 million gektar tropik o'rmon kesilmoqda. Yo'qotishlar o'rmonlarni tiklash ishlariga nis-

batan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilishi dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda. Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me'yordan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo - global iqlim o'zgarishi yuzaga keldi.

Ozon qatlaminin yemirilishi, dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdor qatlaminin yo'qolib borishi, tropik o'rmonlarning kesilishi, cho'llanish, chuchuk suv manbalari va bio xilma-xillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko'payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish kabi ekologik inqirozlar allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma'noda global ekologik muammolarga aylandi.

Statistika agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, har yili mamlakatimizda atmosferaga 800-900 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar chiqarilmoqda. Bu borada eng salbiy ko'rsatkichlar Toshkent (438 ming tonna) va Qashqadaryo (116 ming tonna) viloyatlarida qayd etildi. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishning muhim jihatlardan biri bu - qayta tiklanadigan energiya manbalari o'tish va qazib olinadigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytirishdir. Ushbu o'sish nafaqat iqlim o'zgarishini yumshatish uchun, balki cheklangan resurslarni qazib olish va yoqish natijasida vayron bo'lgan ekotizimlarni hi-moya qilish uchun ham zarur. Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalariga investitsiyalar va ularni qabul qilishni rag'batlantiruvchi siyosat bu borada muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish maqsadida sanoat korxonalarida ekologik auditni doimiy ravishda o'tkazib borish, ichki yonuv dvigatellari-da harakatlanuvchi transportlar o'rni-ga yashil energiyada harakatlanuvchi transportlarni iqtisodiyotga jalb qilish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun jarima sanksiyalari miqdorini oshirish lozim, deb o'ylayman.

Fuqarolarimiz yurtimizdagi ekologik vaziyat va ekologik muammolarga befarq bo'lmasdan, islohotlarga o'z hissasini qo'shishi, o'zi va yaqinlari kelajagi-ga befarq bo'lmasligi kerak. Barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, respublika-da ekologik xavfsizlikni ta'minlash va at-rof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomil-lashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'lig'iga zararli ta'sirining oldini olish, aholi tur-mush darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chi-qindilarni yig'ish, saqlash, tashish, uti-lizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini yana-da takomillashtirishga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Xurshidjon ABDULLAYEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti davlat boshqaruvi kafedrasini mudiri o'rinbosari

BOQIY SO'Z

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV

1. Ezilgan millatning haqiqiy dushmani jaholatdir. Bir millat jaholatdan qutulmaguncha oyog'lar ostindan turlomas.
2. Yurt obro'sini yoshlar saqlar.
3. Bugungacha Ovrupa xalqi osmong'a uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupalilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupa shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jo'g'rofiya va tabiiyot o'qitish, o'qitmaslik ixtiloflari, davom etadi.



4. Ilmdur dunyoda eng yaxshi hunar, Ilmsizdan yaxshidur gung'ila kar.
5. Teatrning ma'nosi ibratxonaga yoki "ulug'lar maktabi" degan so'zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qiling'on bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirs, o'zini husn va qabihini, ayb va nuqsoniga ko'rib, ibrat olur.
6. Bizning eng katta dardlarimizdan biri - jaholat dardidir. Boshimizga har ba-lo kelsa, shu bilimsizligimizdan keladur.

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Mas'ul muharrir:
Shahruza
SATTOROVA

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi - 4 bosma taboq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-508, Adadi - 10366. Boshiga topshirish vaqti - 2100. Topshirildi - 2000.

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

1 2 3 4 5 6